2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 216 (1005), 2023-yil 18-oktabr, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON – XITOY: IKKI TOMONLAMA STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARINI YANADA MUSTAHKAMLASHNING YANGI DAVRI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Xitoy Xalq Respublikasida bo‘lib turibdi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17-oktabr kuni Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin bilan muzokaralar o‘tkazdi.

O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi do‘stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida Prezidentimiz taklif va ko‘rsatilayotgan samimiy qabul uchun Xitoy yetakchisiga minnatdorlik bildirdi.

O‘zbekiston rahbari XXR Raisini Xitoy tashkil topgan kun hamda “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusining o‘n yillik yubileyi bilan chin dildan qutladi.

— “Makon va yo‘l” tashabbusi qisqa tarixiy davr ichida umumiy taraqqiyot va ravnaqqa erishish yo‘lidagi hamkorlik uchun muhim, inklyuziv va ochiq platformaga aylandi. XXR Raisining “Yashil ipak yo‘li” tashabbusi ilk bor 2016-yilda O‘zbekistonda bildirilgani chuqur ramziy ma’noga ega, — dedi mamlakatimiz yetakchisi.

O‘zbekiston Xitoy bilan ko‘p qirrali munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga qat’iy intilishi alohida ta’kidlandi.

Har tomonlama strategik sheriklikni yangi davrda rivojlantirish bo‘yicha besh yillik dastur amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Prezidentining joriy yil may oyidagi Xitoyga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlar izchil bajarilayotgani, siyosiy muloqot mustahkamlanib, asosiy masalalar borasida tomonlar bir-birini qo‘llab-quvvatlayotgani alohida mamnuniyat bilan ta’kidlandi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik jadal rivojlanmoqda.

Keyingi yillarda Xitoy investitsiyalari hajmi besh barobar, qo‘shma korxonalar soni uch barobar ko‘paydi. Joriy yil boshidan buyon o‘zaro savdo hajmi 36 foizga oshdi. Yil yakunigacha ushbu ko‘rsatkich 10 milliard dollardan oshishi kutilmoqda.

Tovar ayirboshlashni yaqin besh yilda 20 milliard dollarga yetkazish uchun barcha asoslar borligi haqida yakdil fikr bildirildi.

Xitoy kompaniyalari va moliyaviy institutlari ishtirokida yuksak texnologiyalar, muqobil energetika, kimyo, mashinasozlik, metallurgiya, elektrotexnika tarmoqlarida, infratuzilmani modernizatsiya qilish va boshqa yo‘nalishlarda bir qator yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston yuqori qo‘shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni birgalikda tashkil etish orqali yuqori texnologik loyihalarni ko‘paytirishdan manfaatdorligi bildirildi.

Xitoyning yetakchi banklari va “Ipak yo‘li” fondi bilan samarali hamkorlikka yuqori baho berildi.

Hududlararo aloqalar faollashgani qayd etildi. Yil boshidan O‘zbekistonga Shinjon — Uyg‘ur avtonom hududi, Shensi, Shandun, Szyansu va Szyansi muzofotlari delegatsiyalari tashrif buyurdi.

Xitoyning kambag‘allikka qarshi kurashish tajribasini o‘rganish va joriy etish borasida samarali tajriba almashish va amaliy hamkorlik qilishga alohida e’tibor qaratildi.

Barcha kelishuvlar ijrosining borishini ko‘rib chiqish maqsadida Hukumatlararo qo‘mitaning navbatdagi yig‘ilishini o‘tkazish taklif qilindi.

Yetakchilar madaniyat, ta’lim va turizm sohalarida qizg‘in hamkorlikni yuksak baholadilar. Xitoy 2023-yilni “Markaziy Osiyo va Xitoy xalqlari madaniyati va san’ati yili” deb e’lon qilish tashabbusini qo‘llab-quvvatlagani uchun minnatdorlik bildirildi.

Yaqinda Xanchjoudagi Ipak milliy muzeyida O‘zbekistonning taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Pekindagi “Gugun” saroyi muzeyida “Makon va yo‘l” tashabbusi doirasidagi Arxeologik hamkorlik ko‘rgazmasida tarixiy merosimiz ekspozitsiyasi tashkil etildi.

Oktabr oyi oxirida O‘zbekistonda Xitoy madaniyati kunlari, kelgusi yil bahorida esa Xitoyda O‘zbekiston madaniyati kunlarini o‘tkazish rejalashtirilgan.

O‘zbekistonda, ayniqsa, yoshlar orasida xitoy tilini o‘rganishga qiziqish ortib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Toshkent va Samarqanddagi Konfutsiy institutining samarali faoliyati bunga katta hissa qo‘shmoqda. Xitoy tilini o‘qitishni va yosh olimlar o‘rtasidagi almashinuvni kengaytirish rejalari belgilab olindi.

O‘zbekiston Prezidenti Toshkentda Xitoyning yetakchi Sinxua universiteti va Pekin universiteti filiallarini ochishni taklif qildi.

Mintaqaviy kun tartibi va xalqaro siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi.

“Yagona Xitoy” siyosati hamda “uch yovuz kuch”ga qarshi kurashish borasidagi pozitsiya o‘zgarmas ekani tasdiqlandi.

Uchrashuvda ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga kelishib olindi.

Muzokaralar yakunida davlatimiz rahbari XXR Raisini tashrif bilan O‘zbekistonga kelishga taklif etdi.

Uchrashuv har doimgidek ishonchli, ochiq va do‘stona ruhda o‘tdi.

Pekin shahridagi Xalq yig‘inlari uyida “Bir makon, bir yo‘l” uchinchi xalqaro forumida ishtirok etayotgan delegatsiyalar rahbarlarini rasmiy kutib olish marosimi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va rafiqasini Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin va rafiqasi tantanali kutib oldi.

Marosimda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish, Rossiya Prezidenti Vladimir Putin, Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban, Pokiston Bosh vaziri vazifasini bajaruvchi Anvar ul-Haq Kakar, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov, qator boshqa mamlakatlarning davlat va hukumatlar rahbarlari ham ishtirok etdi.

Mehmonlarga teatrlashtirilgan konsert dasturi taqdim etildi.

Davlatimiz rahbari Xitoyga amaliy tashrif doirasida Vyetnam Sotsialistik Respublikasi Prezidenti Vo Van Txiong bilan uchrashdi.

Ikki mamlakat o‘rtasida, eng avvalo, savdo-iqtisodiy sohadagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlash joizki, Vyetnam O‘zbekistonning Osiyo — Tinch okeani mintaqasidagi muhim hamkoridir. Keyingi yillarda turli darajalardagi muloqotlar faollashdi, o‘zaro savdo hajmi va qo‘shma korxonalar soni ortib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi va baliqchilik sohalarida loyihalar amalga oshirilmoqda.

Yetakchi kompaniyalarimiz neft-gaz majmuasida, mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo, to‘qimachilik, poyabzal, mebelsozlik, oziq-ovqat va boshqa tarmoqlarda, shu jumladan, maxsus iqtisodiy zonalar va industrial parklar doirasida kooperatsiyalar tashkil etish uchun imkoniyatlar mavjudligi qayd etildi.

Shuningdek, O‘zbekiston va Vyetnam yetakchilari madaniyat, ta’lim va turizm sohalarida almashinuvni rivojlantirish muhim ekanini ta’kidladilar.

O‘zbekiston Prezidenti “Amer International” industrial-sanoat xoldingi raisi Van Veninni qabul qildi.

Xitoyning yetakchi konglomeratlaridan biri bo‘lgan “Amer International” yuksak texnologiyalar, elektronika, yarimo‘tkazgichlar sanoati, konchilik va qayta ishlash tarmoqlaridagi loyihalar bilan shug‘ullanadi. Kompaniya “Fortune 500” global reytingiga kirgan. Xitoyda va uning tashqarisida umumiy qiymati 60 milliard dollardan ziyod bo‘lgan loyihalarni amalga oshirmoqda.

Van Venin O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar dasturi xorijiy, shu jumladan, Xitoy kompaniyalari uchun qulay sharoit yaratayotgani va keng imkoniyatlar ochayotganini ta’kidladi.

Kompaniya mamlakatimizga Markaziy Osiyo mintaqasidagi biznesining bosh yo‘nalishi sifatida qarayotgani qayd etildi.

Misni chuqur qayta ishlash va undan yuqori qo‘shilgan qiymatli innovatsion va xaridorgir mahsulotlar, shu jumladan, elektrotexnika, elektromobillar uchun akkumulyator batareyalari, mikroelektronika va yarimo‘tkazgichlar ishlab chiqarish bo‘yicha istiqbolli loyihalar muhokama qilindi.

“Amer International” kompaniyasi raisi Xorijiy investorlar kengashi faoliyatida ishtirok etishi, mamlakatimizda mintaqaviy ofis ochish hamda qo‘shma innovatsion loyihalarni tezlashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni qabul qilish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Forumning asosiy tadbirlari 18-oktabr kuni bo‘lib o‘tadi.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

BIZ VA DUNYO

Xitoy elchisi Yuy Szyun: “YANGI O‘ZBEKISTONNING MILLIY TARAQQIYOTI VA QURILISHI YUTUQLARINI O‘Z KO‘ZIM BILAN KO‘RIB TURIBMAN”

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 17-18-oktabr kunlari Pekin shahrida bo‘lib o‘tayotgan “Bir makon, bir yo‘l” uchinchi xalqaro forumi tadbirlarida ishtirok etish uchun Xitoyga amaliy tashrifi arafasida “Dunyo” AA muxbiri ushbu mamlakat elchisi Yuy Szyun bilan O‘zbekiston — Xitoy hamkorligi, jumladan, “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasidagi munosabatlar istiqbollari xususida suhbatlashdi.

— So‘nggi yillarda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi muloqot jadal rivojlanmoqda. O‘zbekiston va Xitoy rahbarlari o‘rtasidagi munosabatlarda, ekspertlar ta’biri bilan aytganda, “kimyoviy bog‘liqlik” bor. Ular o‘tgan yili sentabr oyida Samarqandda, may oyida esa Sian shahrida uchrashishdi. Mana endi yetakchilarimiz bir yildan sal ko‘proq vaqt ichida uchinchi marta uchrashmoqda. Xitoyning O‘zbekistondagi yangi elchisi sifatida bu jarayonlarni qanday baholaysiz?

— Aytganingizdek, XXR Raisi Si Szinpin va O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev so‘nggi yillarda yaqin aloqalarni davom ettirib, chuqur do‘stlik rishtalarini o‘rnatgan holda yuqori darajadagi siyosiy o‘zaro ishonchga erishdilar. O‘tgan yilning sentyabr oyida Rais Si Szinpin O‘zbekistonga tarixiy davlat tashrifi bilan bo‘lib, Shanxay hamkorlik tashkilotining (SHHT) Samarqand sammitida ishtirok etdi. Unda davlat rahbarlari keng qamrovli strategik sheriklik yangi davrga qadam qo‘yganini e’lon qildilar.

Davomi 2-betda

YANGI O‘ZBEKISTON RUHI

25 UNWTO GENERAL ASSEMBLY — SAMARKAND UZBEKISTAN 16 - 20 OCTOBER 2023 — UNWTO World Tourism Organization

MAVJUD IMKONIYATLARNI CHAMALASH VA MO‘LJALNI KENGROQ OLISH FURSATI

SAMARQANDDA BUTUNJAHON TURIZM TASHKILOTI BOSH ASSAMBLEYASINING 25-SESSIYASI DOIRASIDAGI TADBIRLAR DAVOM ETMOQDA

Dunyoda iqtisodiy o‘sish omillari yangicha tus olmoqda. Deylik, turizmni olaylik. Bugun dunyodagi ko‘plab davlatlar iqtisodi bevosita turizmdan tushadigan daromadga bog‘liq bo‘lib qolgan. Shuning barobarida boshqa mamlakatlarning ham undan yana va yana ko‘proq foyda topishga intilishi kuchaygan. Hatto sohani mintaqaviy miqyosda rivojlantirish masalasi kun tartibiga chiqib keldi.

Boisi, axborot asri manbalari va qit’alarni o‘zaro yaqinlashtiruvchi transport renessansi insoniyat uchun katta imkoniyatlar yo‘lini ochmoqda. Yangi imkoniyatlar umumbashariy jamiyat manzarasini tubdan o‘zgartirib yubordi. Insonlar og‘ir mehnat qilishdan qutulib, bu vazifa zamonaviy texnologiyalar zimmasiga tushyapti.

Davomi 3-betda

BIZ VA DUNYO

Xitoy elchisi Yuy Szyun:
“YANGI O‘ZBEKISTONNING MILLIY TARAQQIYOTI VA QURILISHI YUTUQLARINI O‘Z KO‘ZIM BILAN KO‘RIB TURIBMAN”

Boshlanishi 1-betda

Joriy yilning may oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev “Xitoy — Markaziy Osiyo” sammitida ishtirok etdi va uning doirasida Xitoyga davlat tashrifini amalga oshirdi. Davlat rahbarlari samarali uchrashuv o‘tkazdilar, yangi davrda keng qamrovli strategik sheriklikni rivojlantirishning yangi yo‘lini belgilab bergan qator kelishuvlar imzolandi.

Men Xitoyning mamlakatingizdagi elchisi sifatida Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida Yangi O‘zbekistonning milliy taraqqiyoti va qurilishi borasida erishilgan yutuqlarni o‘z ko‘zim bilan ko‘rib, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlik istiqbollari ulkan salohiyatga ega ekanini chuqur his qilyapman.

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Bir makon, bir yo‘l” uchinchi xalqaro forumida ishtirok etmoqda. Tashrif davomida davlatlarimiz rahbarlarining uchrashuvi ham o‘rin olgan. U o‘zaro manfaatli hamkorlik yo‘nalishlarini belgilab beradi. Xitoy O‘zbekiston bilan oliy darajada erishilgan muhim kelishuvlarni sobitlik bilan amalga oshirish, tarixiy imkoniyatdan foydalanish va Xitoyning porloq kelajagini yaratuvchi “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi va Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini ilgari surishda davom etishga tayyor.

— “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi 2013-yilda Rais Si Szinpinning Markaziy Osiyoga tashrifi chog‘ida boshlangan edi. O‘shandan buyon biz ushbu tashabbus doirasida o‘zaro manfaatli asosda hamkorlik qilib kelmoqdamiz. Bu borada sizning fikringiz qanday?

— Markaziy Osiyo tashabbus ilgari surilgan joy va amalga oshirish uchun asosiy mintaqadir. So‘nggi o‘n yil ichida BMBY tashabbusi doirasida Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari birgalikda xalqlarimiz farovonligi uchun xizmat qilgan bir qancha yirik loyihalarni amalga oshirdi. Xitoy uzoq yillardan buyon Markaziy Osiyoning beshta davlatining asosiy savdo sherigi bo‘lib kelmoqda. 2022-yilda Xitoy va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 70 milliard dollardan oshdi. “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi tufayli Markaziy Osiyo davlatlari Sharqda dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Hozirgi paytda Xitoy — Markaziy Osiyo gaz quvuri va Xitoy — Qozog‘iston neft quvuri barqaror ishlamoqda, Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston avtomobil yo‘lining multimodal transport salohiyati doimiy ravishda ishga solinmoqda, Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘li loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan.

O‘zbekiston BMBY tashabbusining faol ishtirokchisi va foyda oluvchisi bo‘lib, hamkorlikda samarali natijalarga erishdi. Shuningdek, Xitoy O‘zbekistonning eng yirik savdo sherigi hisoblanadi. O‘zbekiston statistik ma’lumotlariga ko‘ra, joriy yilning yanvar-avgust oylarida mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb 8,3 milliard AQSH dollarini tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 35,6 foizga oshgan. Ta’kidlash joizki, yil boshidan buyon ikki davlat o‘rtasida elektromobillar savdosi keskin o‘sdi. O‘zbekistonga import qilinadigan elektromobillarning 90 foizi Xitoydan kelmoqda. Joriy yilda Toshkent shahri va boshqa viloyatlarda O‘zbekiston shaharlarining go‘zal tashrif qog‘oziga aylanadigan 3 mingta yangi avtobuslar foydalanishga topshiriladi.

Bugungi kunda Xitoy O‘zbekistonga sarmoya kiritayotgan asosiy manba bo‘lib, mamlakatingiz iqtisodiyotiga jalb etilgan Xitoy sarmoyasining umumiy hajmi 11 milliard AQSH dollaridan oshdi. Investitsiyaviy hamkorlik infratuzilma, kimyo sanoati, energetika, suv xo‘jaligi, transport, kommunikatsiya va boshqa sohalarni qamrab oladi. O‘zbekiston tomoni ma’lumotlariga ko‘ra, joriy yilning birinchi yarmida Xitoy respublikaning eng yirik sarmoyaviy hamkoriga aylandi. Poytaxtingizdagi Olimpiya shaharchasi, Toshkent shahridagi uchta bank binosi, Sirdaryo viloyatida 1600 MVt quvvatga ega gaz kombinatsiyalashgan elektr stansiyasi, shuningdek, Buxoro va Qashqadaryo viloyatidagi shamol va fotoelektr stansiyalari qurilishi kabi muhim loyihalar birgalikda amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda 1900 dan ortiq Xitoy kompaniyasi ro‘yxatga olingan. Ular respublika bo‘ylab maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat parklarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotir.

Ayni paytda Xitoy va O‘zbekiston energetika, ishlab chiqarish, zamonaviy qishloq xo‘jaligi va transport infratuzilmasi kabi muhim sohalarda hamkorlikni chuqurlashtirishda davom etmoqda. O‘ylaymanki, kelajakda mineral resurslar, biomedisina, atrof-muhitni muhofaza qilish, kambag‘allikni qisqartirish singari jabhalarda ham hamkorlik uchun yanada keng imkoniyatlar ochiladi va ular ikki tomonlama munosabatlarimizning yangi yo‘nalishlariga aylanadi.

Aytish joizki, joriy yilning sentyabr oyida barcha darajadagi delegatsiyalarning almashinuvi bo‘lib o‘tdi. Bir oy davomida 30 dan ortiq delegatsiyalar Xitoy va O‘zbekistonga tashrif buyurib, turli tadbirlarda ishtirok etdi.

— O‘zbekiston — Xitoy munosabatlari tarixi bir necha ming yillarga borib taqaladi. Qadimiy Buyuk ipak yo‘li Xitoydan boshlangan bo‘lsa, hozirgi O‘zbekiston hududi uning muhim markazi sanalgan. Sizningcha, hozirgi bosqichda davlatlararo munosabatlarning rivojlanishida tarixiy yaqinlik qanday rol o‘ynaydi?

— O‘zbekiston Ipak yo‘lidagi muhim davlat. Qadimgi Ipak yo‘li 2000-yildan oshiq tarixga ega bo‘lib, Xitoy va

O‘zbekistonni chambarchas bog‘lab turadi. Ikkala tomon ham o‘xshash tushuncha va madaniyatga va bir-biridan o‘rganishlari kerak bo‘lgan ko‘plab sifatlarga ega.

Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasidagi an’anaviy do‘stlik ikki davlat o‘rtasidagi zamonaviy munosabatlarni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi. 1992-yil 2-yanvarda O‘zbekiston bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. Har ikki davlat bir-birini hurmat qiladi, yaxshi qo‘shnichilik va do‘stona munosabatlarga ega, o‘zaro manfaat va yordamga intiladi. O‘rtamizda hech qanday muammo va nizolar yo‘q, biz davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar namunasini yarata oldik, deb o‘ylayman.

Xalqaro muammolar bo‘yicha o‘xshash pozitsiya va qarashlarga egamiz, milliy voqelikka mos ravishda rivojlanish yo‘lidan borish huquqini qo‘llab-quvvatlaymiz. Shuningdek, BMT va SHHT doirasida faol hamkorlik qilyapmiz, asosiy manfaatlarga taalluqli masalalarda ham bir-birimizni qat’iy qo‘llab-quvvatlaymiz.

> **YAQINDA SAMARQAND SHAHRIDA ARXEOLOGIYA VA MADANIY MEROSNI MUHOFAZA QILISH BO‘YICHA QO‘SHMA ILMIY-TEXNIK LABORATORIYA OCHILDI. PEKINNING “YOPIQ SHAHRIDA” O‘TKAZILGAN “MAKON VA YO‘L” ARXEOLOGIK HAMKORLIK KO‘RGAZMASIDA O‘ZBEKISTONDAN KO‘PLAB MADANIY YODGORLIKLAR NAMOYISH ETILDI VA ULAR XITOY JAMOATCHILIGINING E’TIBORINI TORTDI. BUNDAN TASHQARI, O‘ZBEKISTONNING BOY SAYYOHLIK VA MADANIY SALOHIYATI XITOYLIK SAYYOHLARNI TOBORA KO‘PROQ O‘ZIGA JALB ETMOQDA.**

O‘zlarining chuqur tarixiy va boy madaniy merosi tufayli har ikki tomon ham davlat boshqaruvi sohasida bir xil qarashga ega. Xitoy O‘zbekistonga yaxshi qo‘shni, yaqin do‘st va ishonchli hamkor, shuningdek, islohotlar, ochiqlik, milliy taraqqiyot va rivojlanish yo‘lidagi sherik sifatida qaraydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoy tajribasidan foydalangan holda Sirdaryo viloyatini “Ilg‘or innovatsiyalar hududi”ga aylantirish bo‘yicha ko‘rsatma berdi. Xitoy buni qadrlaydi va O‘zbekiston bilan turli sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga tayyor.

Bundan tashqari, ikki davlatning boy tarixiy-madaniy merosi ham ikki xalqning bir-birini yaqindan bilishi uchun yaxshi sharoit yaratmoqda. Ipak yo‘lining Samarqand, Buxoro, Xiva kabi mashhur qadimiy shaharlari xitoylik sayyohlarning e’tiborini har doim o‘ziga jalb etib kelgan. Ayni paytda o‘zbekistonlik do‘stlarimiz Xitoyga sayohat qilib, qadimiylik va zamonaviylik uyg‘unligini his qilish niyatida. Xitoy xalqlarimiz o‘rtasidagi aloqalarni yanada kengaytirishga, gumanitar hamkorlikni faollashtirishga, xalqlarimizni yanada bir-biriga yaqinlashtirishga tayyor.

— O‘zbekiston va Xitoy Shanxay hamkorlik tashkilotining ta’sischi davlatlari hisoblanadi. Ushbu tuzilmaning tashkil etilganiga 22 yildan ortiq vaqt o‘tdi. O‘zbekistonning 2022-yilda SHHTga raisligi va tashkilotning Samarqand sammiti yakunlari xorijlik ekspertlarning munosib e’tirofiga sazovor bo‘ldi. Ushbu tuzilma doirasidagi hamkorlik haqidagi fikrlaringizni ham bildirsangiz.

— O‘tgan 22 yil davomida Shanxay hamkorlik tashkiloti o‘zaro hamjihatlikni, taraqqiyot va sherikchilikni mustahkamlashga harakat qildi. Tashkilot murakkab rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi: dastlabki oltita ta’sischi davlatdan to‘qqizta a’zo, uchta kuzatuvchi va 14 muloqot bo‘yicha hamkor davlatlardan iborat katta oilaga qadar. SHHT doirasida barcha tomonlar mafkuralar, ijtimoiy tizimlar va rivojlanish yo‘llaridagi tafovutlarni yengib o‘tdi. Lekin doimo “Shanxay ruhiga” amal qiladi, yangi turdagi xalqaro munosabatlar modelini o‘rnatdi, mintaqada va butun dunyoda xavfsizlik, barqarorlik, tinchlik va rivojlanishni ta’minlashning muhim kuchiga aylandi.

Xitoy va O‘zbekiston SHHTning ta’sischilari sifatida ko‘p yillar davomida boshqa a’zo davlatlar bilan tashkilot doirasida xavfsizlik, iqtisodiyot, savdo va odamlar almashinuvi kabi turli sohalarni faol rivojlantirish maqsadida yaqin hamkorlik qilib kelmoqda. Xitoy O‘zbekistonning SHHTga raislik davrida tashkilot rivojiga qo‘shgan muhim hissasini yuqori baholaydi. O‘tgan yilning sentyabr oyida bo‘lib o‘tgan Samarqand sammiti muvaffaqiyatli yakunlanib, mintaqaviy va xalqaro tartibni barpo etish yo‘lida yangi yo‘lning boshlanishini belgilab berdi.

Keyingi qadam sifatida Xitoy SHHT doirasida O‘zbekiston bilan munosabatlarni muvofiqlashtirish va hamkorlikni kuchaytirishga, milliy xavfsizlik va mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashga, taraqqiyot va tiklanishni rag‘batlantirish yo‘lida birgalikda ishlashga, shuningdek, barcha mamlakatlar xalqlariga ko‘proq farovonlik olib kelish uchun SHHTning mustahkam yagona hamjamiyatini barpo etishga tayyor.

— Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va boshqa sohalardagi aloqalar jadal rivojlanmoqda. O‘zaro hamkorlikning muhim qismi bo‘lgan madaniy-gumanitar jabhalarlardagi aloqalarga to‘xtalib o‘tmasdan ilojimiz yo‘q. Bu boradagi hamkorlik rivoji haqida gapirib bersangiz. Va umuman olganda, o‘zaro hamkorlikning qaysi sohalari eng istiqbolli deb hisoblaysiz?

— So‘nggi yillarda ikki davlat o‘rtasida ta’lim, madaniyat, arxeologiya, turizm, ommaviy axborot vositalari va boshqa sohalardagi hamkorlik chuqurlashib bormoqda. Ayniqsa, ikki davlat o‘rtasida ta’lim sohasidagi hamkorlik sur’ati tezlashdi. Toshkent va Samarqandda Konfutsiy institutlari ochildi. Ular 10 mingdan ortiq xitoy tili mutaxassislarini doimiy ravishda tayyorlaydi. Mamlakatda xitoy tilini o‘rganishga bo‘lgan talab ham oshib bormoqda. O‘z navbatida, Xitoyning ko‘plab universitetlarida o‘zbek tili kurslari va tadqiqot markazlari tashkil etilgan. Xitoy “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining qurilishi va ekspluatatsiyasida faol ishtirok etmoqda. Tyanszin dengiz kasb-hunar kolleji va Toshkent davlat transport universiteti “LuBan Workshop” loyihasini O‘zbekistonda faol ravishda ilgari surmoqda. O‘tgan oy Shensi shahridagi ko‘plab universitetlar O‘zbekistonda oliy ta’lim ko‘rgazmasini taqdim etgan bo‘lsa, shu hafta Xitoy Xalq universiteti O‘zbekiston Milliy universiteti bilan hamkorlik bitimini imzolaydi.

Madaniyat sohasida ikkala tomon bir-biri uchun san’at festivallari, ko‘rgazmalar va seminarlar kabi bir qator madaniy va badiiy tadbirlarni tashkil etdi va birgalikda “Bahorning quvnoq bayrami” va “Xitoy ko‘prigi”ni nishonlashdi.

Yaqinda O‘zbekistonda “Xitoy madaniyati kunlari” bo‘lib o‘tadi va unda 100 kishidan iborat Shinjon badiiy truppasi yil davomida maxsus teatrlashtirilgan tomoshalarni namoyish etish uchun yurtingizga keladi.

O‘zbekistonlik sportchilarni ko‘plab sport turlari bo‘yicha erishgan muvaffaqiyatlari, jumladan, yaqinda Xanchjou shahrida bo‘lib o‘tgan Osiyo o‘yinlarida medallar jamg‘arish bo‘yicha beshinchi o‘rinni egallagani bilan tabriklayman.

Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasidagi ommaviy axborot vositalari hamkorligi ham izchil mustahkamlanib bormoqda. Yaqinda Xitoyning “CCTV” va “China Movie Channel” O‘zbekistonning “Renessans” va “ZO‘R TV” telekanallari o‘rtasida kino va dramalar teletranslyatsiyalari sohasida Hamkorlik memorandumi imzolandi. Shuningdek, O‘zbekistonda Xitoy kino haftaligini o‘tkazish nazarda tutilgan. Xitoy so‘nggi yillarda o‘tkazilgan “Ipak yo‘li gavhari” Toshkent xalqaro kinofestivalida “Adashayotgan yer” va boshqa ko‘plab kino va teleasarlar bilan ishtirok etdi.

Ikki davlat arxeologlari o‘rtasidagi hamkorlik ham chuqurlashib bormoqda. Xitoy tomoni ko‘magida Xorazm viloyatidagi tarixiy-madaniy yodgorliklarni tiklash ishlari muvaffaqiyatli yakunlandi. Mingtepa o‘rni va Kaunchin madaniyati xarobalari bo‘ylab arxeologik qazishmalar olib borilmoqda.

Yaqinda Samarqand shahrida arxeologiya va madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha qo‘shma ilmiy-texnik laboratoriya ochildi. Pekinning “Yopiq shahrida” o‘tkazilgan “Makon va yo‘l” Arxeologik hamkorlik ko‘rgazmasida O‘zbekistondan ko‘plab madaniy yodgorliklar namoyish etildi va ular Xitoy jamoatchiligining e’tiborini tortdi. Bundan tashqari, O‘zbekistonning boy sayyohlik va madaniy salohiyati xitoylik sayyohlarni tobora ko‘proq o‘ziga jalb etmoqda.

Xitoy raisi Si Szinpin sivilizatsiyalararo almashinuv va o‘zaro ta’limni chuqurlashtirish to‘siqlar, tushunmovchiliklarni bartaraf etish va odamlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni rag‘batlantirishning muhim yo‘li ekanini ta’kidlagan edi. Umumiy rivojlanish va tiklanish manfaatlari, ikki xalq o‘rtasidagi o‘zaro anglashuv va do‘stlikni mustahkamlash maqsadida Xitoy O‘zbekiston bilan global sivilizatsiya tashabbusini amalga oshirishda birgalikda ishlashga, do‘stona hamkorlikni kengaytirish uchun universitetlarni birgalikda qo‘llab-quvvatlashga, sayyohlik salohiyatidan foydalanishga, ko‘proq madaniy va badiiy tadbirlarni o‘tkazishga, kadrlar almashinuvini kengaytirishga, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida gumanitar fanlarning yangi ufqlarini ochish bo‘yicha hamkorlikka doim tayyor.

— Janob elchi, mazmunli suhbat uchun Sizga minnatdorlik bildiramiz.

“Dunyo” AA

NUQTAYI NAZAR

O‘ZARO ISHONCH MUHITI
bu mintaqaviy muloqot ruhida aks etmoqda

O‘zbek va qirg‘iz xalqlari o‘rtasida mushtarak tarix, madaniy va ma’naviy qadriyatlar, hamkorlik, o‘zaro hurmat, quda-andalik va yaxshi qo‘shnichilikning ko‘p asrlik an’analaridan iborat mustahkam poydevor bor.

Sayyora FAYZIYEVA,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Toshkent viloyati bo‘limi rahbari

O‘zbekiston bilan Qirg‘iziston munosabatlarida turli davrlar va murakkab sahifalar bo‘lgani hech kimga sir emas. Bugun o‘zbek-qirg‘iz munosabatlari mamlakatlarimiz rahbarlarining qat’iy siyosiy irodasi tufayli mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi.

Bugungi kunda Toshkent viloyatida qirg‘iz millatiga mansub 20 mingdan ziyod yurtdoshimiz istiqomat qilmoqda. O‘zaro yaxshi qo‘shnichilik siyosatining amaliy samarasi o‘laroq, o‘tgan yili viloyatimizda qirg‘iz milliy madaniy markazi tashkil etildi. Markaz ko‘p millatli xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini yanada mustahkamlash, shu jumladan, qirg‘iz millatiga mansub qardoshlarimiz ahilligi, urf-odatlari boqiyligi, an’analari bardavomligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning 2018-yil 2-apreldagi “Buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori doirasida Parkent tumanidagi 33-maktabda adibning byusti o‘rnatildi.

Ikki davlat rahbarlari yaxshi qo‘shnichilik, do‘stona munosabatlarni inobatga olgan holda, muammoli va qiyin masalalarni ochiq va konstruktiv ruhda muhokama qilib, aniq yechimlarga kelmoqda.

Bugun O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida yechimi yo‘q masalaning o‘zi qolmadi. Qat’iy siyosiy iroda va sa’y-harakatlar natijasi o‘laroq, bugun qardosh mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarni yanada yaxshilashda gap-so‘zlardan aniq amaliy ishlarga o‘tilganini xalqlarimiz o‘z hayoti misolida sezyapti, ko‘ryapti.

O‘tgan hafta Bishkekda MDH davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi doirasida Prezidentimizga do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hissasi uchun tashkilotning oliy mukofoti — MDH Faxriy nishoni topshirilgani amalga oshirilgan xayrli ishlarga berilgan yuksak baho bo‘ldi.

Qirg‘iziston rahbari o‘z nutqida Shavkat Mirziyoyevning do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash, Markaziy Osiyo va butun MDH mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini alohida e’tirof etdi.

Aynan Prezidentimiz sa’y-harakatlari tufayli MDHga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarda mutlaqo yangicha ishonch muhiti yaratilib, o‘zaro savdo va sarmoya hajmini oshirish, sanoat kooperatsiyasi, transport va suv-energetika infratuzilmasi bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi qulay muhit shakllanayotgani ta’kidlandi. Ayniqsa, davlatimiz rahbari siyosiy irodasi tufayli o‘zbek-qirg‘iz davlat chegarasini demilitatsiya qilish jarayonini yakunlash imkoni bo‘lganiga alohida urg‘u qaratgani ham e’tiborga molik.

> **BUGUN O‘ZBEKISTON VA QIRG‘IZISTON O‘RTASIDA YECHIMI YO‘Q MASALANING O‘ZI QOLMADI. QAT’IY SIYOSIY IRODA VA SA’Y-HARAKATLAR NATIJASI O‘LAROQ, BUGUN QARDOSH MAMLAKATLAR O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNI YANADA YAXSHILASHDA GAP-SO‘ZLARDAN ANIQ AMALIY ISHLARGA O‘TILGANINI XALQLARIMIZ O‘Z HAYOTI MISOLIDA SEZYAPTI, KO‘RYAPTI.**

Sadir Japarov g‘oyat o‘rinli ta’kidlaganidek, bu masalaning hal etilishi barcha sohalardagi hamkorlikka ijobiy dinamika qo‘shib, ko‘p yillar davomida ochiq qolayotgan muammolarni hal etishga turtki bo‘ldi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonning MDHdagi ishtiroki faollashdi. Mamlakatimiz tarmoqlar bo‘yicha hamkorlikning 24 organiga qo‘shildi, 65 tuzilmasi faoliyatida to‘liq ishtirok etmoqda. Ushbu davrda davlatimiz rahbari tomonidan ko‘plab muhim yo‘nalishlar yuzasidan qariyb 70 tashabbus ilgari surildi. Ularning aksariyati MDHga a’zo mamlakatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning MDH Faxriy nishoni bilan taqdirlanishi yangi O‘zbekistonning “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirib, bu borada ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat yuritish bo‘yicha islohotlarni samarali amalga oshirayotganidan dalolat beradi.

YANGI O‘ZBEKISTON RUHI

MAVJUD IMKONIYATLARNI CHAMALASH VA MO‘LJALNI KENGROQ OLISH FURSATI

SAMARQANDDA BUTUNJAHON TURIZM TASHKILOTI BOSH ASSAMBLEYASINING 25-SESSIYASI DOIRASIDAGI TADBIRLAR DAVOM ETMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Bizda texnologiyalar o‘tgan asr bilan solishtirganda, odamlarning bir kunda qancha vaqtini tejayotgani haqida ma’lumot yo‘q. Lekin shunisi aniqki, bugungi davr kishilari o‘zini ancha erkin va bemalol his qiladi. Bu, o‘z navbatida, hayot mohiyatini teranroq anglash, uzoqroq manzillarni ko‘rmoq imkonini paydo qildi. Texnologiyalar rivoji esa hech qachon ortga ketmagan. Shuni nazarda tutsak, turizm yil sayin keng imkoniyatlar manbai bo‘lib boraverishiga shubha yo‘q.

Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining Samarqand sessiyasi bu boradagi yangi imkoniyatlarni yana bir bor chamalash va mo‘ljalni kengroq olish uchun yetarlicha fursat bermoqda.

Dastlab yubiley sessiyada Prezident Shavkat Mirziyoyevning ishtiroki qanchalik ahamiyatli bo‘lganiga alohida e’tibor qaratmoqchimiz.

Mazkur nufuzli xalqaro tadbirda O‘zbekiston Prezidentining bevosita ishtirok etgani, avvalo, 140 dan ziyod mamlakatdan kelgan soha mutaxassislarida, sessiya ishi tafsilotlarini chet mamlakatlardan turib, kuzatib borayotgan ishbilarmon va siyosiy doiralar vakillarida mamlakatimizga bo‘lgan ishonch kayfiyatini yanada mustahkamladi.

Boisi, har qanday yirik tadbirkorni investitsiya kiritadigan mamlakatdagi tinchlik va ishonchlilik muhiti qiziqtiradi. Davlatimiz rahbari O‘zbekistonda keng ko‘lamli, ortga qaytmas tus olgan islohotlar dasturi amalga oshirilayotgani, unda asosiy e’tibor demokratik jamiyat institutlarini mustahkamlash, iqtisodiyotni liberallashtirish, xalqimiz turmush darajasini yuksaltirishga qaratilgani haqida gapirar ekan, jumladan, **“Olib borayotgan “ochiq eshiklar” siyosatimizda turizm tarmog‘iga ustuvor ahamiyat beryapmiz”,** dedi.

Shu o‘rinda aytish joizki, xalqimiz turmushi farovonligini ta’minlash yo‘lida mamlakatimizda turizm sohasiga qaratilayotgan e’tibor ham alohida tahsinga molik. Xususan, keyingi yillarda tarmoqda yirik loyihalar ro‘yobga chiqarilmoqda. Ichki va tashqi turizmni rivojlantirish bo‘yicha islohotlar ko‘lami tobora kengayib boryapti.

Jumladan, xorijiy davlatlardan tashrif buyuruvchilar uchun viza rejimi soddalashtirildi. Hozirgi vaqtda salkam yuzta mamlakat fuqarolari uchun O‘zbekistonga vizasiz kirish tizimi amalda. Yana 55 davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan elektron viza tartibi joriy etilgan.

Bundan tashqari, “Vatandosh”, “Student visa”, “Academic visa”, “Medical visa” va “Pilgrim visa” kabi yangi kirish viza turlari ham mavjud.

Xalqaro aeroportlarda yaratilgan qulayliklar tashrif buyuruvchilarning aeroportdan o‘rtacha hisobda 2-3 soatda chiqib ketish vaqtini 15-20 daqiqaga tushirdi. Xorijiy sayyohlarni “E-mehmon” tizimi orqali elektron ro‘yxatdan o‘tkazish amaliyoti joriy etildi, ularning erkin harakatlanishi uchun sharoitlar yaratildi. Natijada yurtimizga xorijiy davlatlardan 2017-yilda 2,7 million sayyoh

tashrif buyurgan bo‘lsa, bu raqam 2022-yilda 5,2 millionni tashkil etdi. 2023-yilda esa 7 million sayyoh kelishi kutilyapti. Tahlillar sayyohlarning O‘zbekistonda qolish muddati 4-5 kunni tashkil etayotganini ko‘rsatmoqda. Demak, ularga O‘zbekiston tabiati, tarixi, bugungi hayoti qiziq, yaratilgan shart-sharoitlar ma’qul kelmoqda.

Yurtimizda ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan ishlar ham diqqatga sazovor. Joriy yilga kelib, ichki sayohat qiluvchilar (mahalliy sayyohlar) soni ham 2017-yilga nisbatan 107 foizga o‘sib, 14,9 million nafarni tashkil qilgani fikrimiz tasdig‘idir.

Sayyohlar uchun alohida tizim yaratilyapti. Qulaylik bor. Bu, o‘z navbatida, o‘ziga xos infratuzilmani talab etadi. Shu ma’noda, mamlakatimizda ushbu yo‘nalishdagi ishlar ham parallel ravishda kengaytirilayotgani quvonarli hol. Ya’ni o‘tgan vaqt mobaynida mehmon o‘rinlari soni 3,4 barobarga ko‘payib, 128 mingtaga yetkazildi. Vaholanki, bundan olti yil avval ular soni 37 mingta edi.

Shuningdek, 2018-yilda 106 ta (o‘rinlar soni 841 ta) oilaviy mehmon uyi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni 3,2 mingtani (o‘rinlar soni 28,5 mingta) tashkil etmoqda. Buning ortidan qishloqlarda 9 mingdan ortiq fuqaro ishli bo‘ldi. Qolaversa, sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida yo‘l bo‘ylari va aholi gavjum joylarda 8,3 mingta sanitariya-gigiyena shoxobchalari holati yaxshilandi. Hozirgi kunda respublikamizda 2404 ta turistik tashkilot va turagent, 2864 nafar gid-ekskursovod faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekistonning sayyohlik salohiyati yuksalishi hamda mamlakatga turistlar oqimini kengaytirishda turli yo‘nalishlarda o‘tkazilayotgan tadbirlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda an’anaviy tus olgan va tobora ommalashib borayotgan “Boysun bahori”, “Lazgi”, xalqaro gullar, zardo‘zlik va zargarlik kabi festival va anjumanlarni shular sirasiga kiritish mumkin. Bularning bari jahon miqyosida mamlakatimizning sayyohlik imiji yaxshilanishi va yuksalishiga sabab bo‘lmoqda.

Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar turizm vazirlarining XI sessiyasida Xiva shahri 2024-yilda “Islom dunyosining turizm poytaxti”, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida esa Qo‘qon “Turizm poytaxti”, deb e’lon qilingani fikrimiz dalilidir.

Pirovardida, O‘zbekiston Jahon musulmon sayyohlari indeksi reytingida 32-o‘rindan 22-o‘ringa ko‘tarilib, “eng jozibador” hamda “xavfsizlik va bag‘rikenglik darajasi yuqori” bo‘lgan 10 mamlakat qatoriga kirdi. Butunjahon turizm tashkiloti O‘zbekistonni sayyohlik salohiyati eng tez rivojlanayotgan 4 mamlakat qatorida e’tirof etdi.

Butunjahon turizm tashkilotining 24-sessiyasida Bosh Assambleya yubiley tadbirini 2023-yilda qadimiy Samarqandda o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilingan edi. Salkam bir hafta davom etadigan xalqaro tadbir ana shu sa’y-harakatlar mevasidir.

Prezidentimiz nutqida ta’kidlanganidek, dunyo turizm industriyasining e’tiborga molik yirik tadbiri — Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasining Samarqandda o‘tkazilishi katta tarixiy voqeadir. Binobarin, ushbu anjuman tashkilotga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yanada kengaytirish va unga yangi shiddat bag‘ishlashga xizmat qiladi.

Sessiyada davlatimiz rahbari turizmni rivojlantirishga doir bir qator takliflarni ilgari surdi. Global turizmning eng dolzarb muammosi — bu turistlarning kafolatlangan xavfsizlik tizimini ta’minlash maqsadida BMTdoirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqish, “yashil” turizmni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro Harakatlar dasturini qabul qilish, “Yashil” turizmni joriy etish bo‘yicha eng yaxshi shahar” nominatsiyasini ta’sis etish, 2025-yilni “Butun jahon inklyuziv turizm yili”, deb e’lon qilish, tashkilot huzurida Sayyohlik bo‘yicha tarixiy shaharlar kengashini tuzish, Jahon yoshlar turizmi sammitini Toshkentda o‘tkazish, “Ipak yo‘li” brendini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun tashkilotning maxsus xalqaro mukofotini ta’sis etish kabi tashabbuslar shular sirasidandir.

Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining navbatdagi yig‘ilishiga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Tashkilot Bosh Assambleyasi 25-sessiyasi doirasida forumlar, uchrashuv va sessiyalar, taqdimot marosimlari o‘tkazilmoqda. Ularda turizm tarmog‘ining bugungi holati, istiqboli muhokama qilinib, ko‘plab investitsion loyihalar taqdim etilmoqda.

Gap investitsiya haqida ketar ekan, bu boradagi ayrim raqamlarni ham keltirib o‘tsak o‘rinli bo‘ladi. Zero, raqamlar ham, ular asosida amalga oshirilayotgan loyihalar ko‘lami ham kichkina emas.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2021-yilda yurtimizda turizm sohasidagi investitsiya loyihalari doirasida umumiy qiymati 11,4 trillion so‘m mablag‘lar o‘zlashtirilib, 495 loyiha amalga oshirilgan. Investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 1,2 milliard AQSH dollari bo‘lgan 62 loyihada 562,7 million dollarlik investitsiya o‘zlashtirilib, 31 loyiha ishga tushirilgan. O‘tgan yili esa tarmoqqa jami 22,1 trillion so‘mlik 735 loyiha jalb etilib, qo‘shimcha 23 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya jalb qilish hamda raqobatbardosh xizmatlarni yo‘lga qo‘yishga berilgan e’tibor natijasida turizm bozorimizga “Hilton”, “Marriott”, “Hyatt”, “Wyndham”, “InterContinental Hotels Group”, “Accor” kabi yetakchi mehmonxona brendlari kirib kelmoqda. Ular nafaqat Toshkent, balki Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlariga ham qiziqish bildirib, faoliyatini yo‘lga qo‘ymoqda.

Muxtasar aytganda, BMT Bosh Assambleyasining Samarqand sessiyasi qizg‘in ruhda davom etmoqda. Bundan ko‘rinadiki, turizm butun dunyo xalqlari birdamligi, hamjihatligini ta’minlaydigan, turmush farovonligiga zamin yaratadigan asosiy vositalaridan biriga aylanib bormoqda.

Dilshod ULUG‘MURODOV,
Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari

So‘z – anjuman ishtirokchilariga!

Farrux ERMATOV,
Turizm qo‘mitasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari:

— Xalqaro ahamiyatga ega bunday yirik tadbirning O‘zbekistonda o‘tkazilayotgani e’tiborga molik. Bu mamlakatimiz nafaqat turizm sohasida, balki tinchlik va hamjihatlikka yo‘naltirilgan tashqi siyosatda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib borayotganidan dalolat beradi.

Turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni nechog‘liq ahamiyatli ekanini davlatimiz rahbari o‘z nutqida ham alohida ta’kidladi va bir qator tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, birgina transport yo‘nalishida “Toshkent — Samarqand” va “Navoiy — Buxoro” yo‘nalishlari uchun yana 6 ta tezyurar poyezd olib kelinishi, yurtimizda 600 kilometr qo‘shimcha temir yo‘l qurilishi qayd etildi. 2025-yildan boshlab “Toshkent — Xiva” tezyurar poyezdi qatnovi yo‘lga qo‘yilsa, 2026-yildan esa ushbu yo‘nalish Nukus shahrigacha uzaytiriladi.

“Toshkent — Samarqand” va “Toshkent — Andijon” yo‘nalishlarida xususiy sheriklik asosida pullik avtomagistrallar qurilishi natijasida ushbu yo‘nalishlarda manzilga yetib borish vaqti 2 barobar qisqaradi.

Bundan tashqari, aviaparklarimiz 2030-yilga qadar zamonaviy yana 56 ta samolyot bilan boyitiladi. Shu bilan birga, aviaqatnovlar soni 4 barobar oshiriladi. Barcha aeroportlarda “ochiq osmon” rejimi joriy qilinib, hududlardagi 6 ta yirik aeroport xususiy sheriklik asosida yangilanadi. Bularning bari, albatta, mamlakatimizga keluvchi sayyohlar soni ortishiga, tarmoq jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

> **Umuman, sohadagi bu kabi o‘zgarishlar O‘zbekistonnning xalqaro reytinglardagi ko‘rsatkichlarini ham yaxshilayapti. Masalan, yurtimiz hozirda yakka tartibda sayohat qilish bo‘yicha dunyoning beshta xavfsiz davlatidan biri, deya e’tirof etilyapti. Ya’ni bugun yurtimizga keladigan har bir sayyoh mamlakatimizning barcha hududlariga borishi, o‘zini qiziqtirgan tarixiy, tabiiy yoki boshqa inshootlarni xavfsiz va to‘siqsiz ko‘rishi, umuman, erkin aylanish imkoniga ega. Qolaversa, tibbiyot yoki ta’lim turizmi imkoniyatlaridan ham bemalol foydalanishi mumkin.**

Ana shunday e’tibor tufayli turizmdan ko‘riladigan daromad oshib boryapti. Joriy yilda sohada ishlab topiladigan mablag‘ni ikki milliard dollarga yetkazish ko‘zlanyapti. Bu yalpi ichki mahsulotning salmoqli qismini tashkil etadi. Bundan tashqari, turizm dunyoda yangi ish o‘rni yaratish bo‘yicha ham muhim tarmoq hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo miqyosida yangi yaratilayotgan har o‘nta ish o‘rnidan bittasi turizmga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich, ayniqsa, yoshlar mamlakati bo‘lgan O‘zbekiston uchun juda muhim. Chunki mamlakatimizda har yili mehnat bozoriga ko‘plab yangi ishchi kuchi bo‘lgan g‘ayratli, bilimli yoshlar kirib keladi. Ularning bandligini ta’minlashda turizm sohasining o‘rni katta. Shu bois, soha rivojiga e’tibor bundan keyin ham kuchayib boraveradi. Bu borada mamlakatimizda o‘tayotgan ushbu yirik xalqaro tadbir yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Shahzoda XIDIROVA,
Qashqadaryo viloyat turizm boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i:

— Turizm insoniyatning farovonligi va barqaror taraqqiyotini ta’minlashning muhim omilidir. Ayni paytda u jahon xalqlari o‘rtasida madaniy almashuvlarni kuchaytiradigan, bag‘rikenglik tamoyillarini mustahkamlaydigan muhim vosita. Shu bois, dunyo davlatlari global pandemiyadan keyin o‘z iqtisodiyotini tiklash va dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishda turizm sohasiga tayanmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki bugun sohaga kiritilayotgan mablag‘ kelgusida yaxshigina daromad keltiradi. Yaratilayotgan har bir yangi ish o‘rni esa boshqa tarmoqlarda yana qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratishga imkon beradi.

Mamlakatimizda soha rivojiga e’tibor yil sayin kuchaymoqda. Prezidentimiz Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiyasidagi nutqida bu borada amalga oshirilayotgan ishlar, erishilayotgan natijalar xususida alohida to‘xtalib o‘tdi. Shu bilan birga, oldimizda turgan ustuvor vazifalarga ham e’tibor qaratildi. Xususan, turizmning turli yo‘nalishlarini rivojlantirish bo‘yicha olib borayotgan ishlarimiz natijasida kelgusida kamida 1 millionta yangi ish joylari yaratilishi qayd etildi.

Bu borada viloyatimizda ham keng qamrovli ishlar olib borilyapti. Natijada joriy yilning o‘tgan davrida ikki yuz ming xorijiy, bir million sakkiz yuz mingga yaqin mahalliy sayyohni jalb etdik. Yil oxirigacha xorijiy sayyohlar sonini 220 mingga yetkazish, ichki turizmni ham yanada rivojlantirish hisobiga turizm eksporti hajmini 42 million dollarga yetkazishni ko‘zlayapmiz. Buning uchun turli loyihalar, jumladan, madaniy tadbirlarni ko‘paytiryapmiz. Joriy yilda 15 ta shunday yirik madaniy-musiqiy tadbirlar tashkil etildi. Yil yakunigacha yana ikkita loyihani amalga oshiramiz. Ulardan biri ziyorat turizmi bo‘yicha, ikkinchisi taniqli yosh san’atkorlar ishtirokida tashkil etiladi.

Ayni paytda joylarda sayyohlarni keng jalb etadigan yangi infratuzilmalar yaratish ustida ish olib borilyapti. Masalan, Taxtaqoracha dovonida turistik rekreatsion hudud yaratish rejalashtirilgan. Bu yerda bir vaqtning o‘zida ikki yuz ming sayyohni jalb qilish uchun zarur infratuzilma barpo etiladi. Xususan, osma dor yo‘li, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari, hunarmandchilik rastalari tashkil etiladi.

Mahfuza DAVLATMURODOVA,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo tumanidagi “Fuza travel” sayyohlik agentligi rahbari:

— Turizm sohasiga yoshligimdan qiziqqanman. Ingliz va rus tilini yaxshi bilganim tufayli soha bo‘yicha dunyodagi ilg‘or tajribalarni doimiy o‘rganib kelaman. Bugungi kunda sohaga e’tibor yurtimizda ham davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani menga juda qo‘l keldi. Yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, bir yil avval turizm bo‘yicha tadbirkorlik faoliyatini boshladim. Agentligimiz dunyoning turli mamlakatlari bo‘ylab sayohat tashkil etadi. Sayyohlarga viza bo‘yicha ko‘mak beramiz. Mehmonxonalarga joylashish, aviachipta olish, gid xizmatlari ham yo‘lga qo‘yilgan.

Kelgusida faoliyatni yanada rivojlantirish niyatidaman. Yurtimiz bo‘ylab sayohatlarni tashkil etish uchun avtobuslar xarid qilmoqchiman. Bu borada bizga davlatimiz tomonidan barcha sharoitlar yaratib berilayotganidan mamnunman. Ushbu imkoniyatdan foydalanib ish faoliyatimizni kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojiga munosib ulush qo‘shamiz.

Samarqandda bo‘lib o‘tayotgan ushbu yirik xalqaro tadbir ham faoliyatimiz rivoji uchun yana bir katta imkoniyat bo‘ldi. Uning dastlabki kunidayoq turkman va qirg‘iz hamkasblarimiz bilan shartnoma imzolashga erishdik. Tadbir yakuniga qadar yana shunday hamkorlar sonini ko‘paytirish, yurtimizga ko‘proq xorijiy sayyohlarni jalb etish niyatidamiz.

Mansur YO‘LDOSHEV,
Namangan viloyatidagi “Ziyarat travel” MCHJ rahbari:

— Sayyohlik firmamiz faoliyat boshlaganiga besh yil bo‘ldi. Sayyohlikni rivojlantirish borasida yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli faoliyatimiz tobora kengaymoqda. Biz sohamiz bo‘yicha Malayziya, Indoneziya, Singapur, Tailand, Pokiston, Hindiston va boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikda ish olib boryapmiz. Shu yilning o‘tgan davrida yetti mingdan ziyod xorijlik sayyohni jalb qildik. Ularning har biri 5 kun mobaynida O‘zbekiston hududida bo‘lib tursa, davlat tomonidan har bir sayyoh uchun bizga15 dollar mablag‘ ajratiladi.

Bundan tashqari, avia, temir yo‘l chiptalarini, mehmonxonalarni band qilishimizda ham yengilliklar berilgan. Shunday imkoniyat tufayli faoliyatimiz rivojlanyapti. Bu yil yetti mingdan ko‘proq xorijlik va qariyb yigirma ming mahalliy sayyohlarni jalb qildik. Sof daromadimiz 300 million so‘mdan oshdi.

Ushbu tadbir faoliyatimizni rivojlantirish uchun katta imkoniyat. Hafta mobaynida xorijlik hamkorlarimiz bilan uchrashib, sayyohlar sonini va yo‘nalishlarni kengaytirish bo‘yicha yangi shartnomalar imzolayapmiz.

Turizmda izchil rivojlanib borish uchun marketing muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, biz doimo ijtimoiy tarmoqlarda marketing bilan shug‘ullanamiz. Xorijiy davlatlarga borib, yirik sayyohlik ko‘rgazmalarida qatnashamiz.

Bugungi kunda firmamizda 20 ga yaqin doimiy va mavsumiy xodimlar ishlayapti. Ular hamkor davlatlarning ona tilini yaxshi bilgani sayyohlarni jalb etishda muhim omil bo‘lyapti. O‘zim ham ingliz va malay tili bo‘yicha tarjimonman. Turoperator bo‘lib ishlab sohada katta tajriba orttirganman va bu tajribamni jamoamizdagi yoshlarga ham o‘rgatib kelyapman. Kelgusida Toshkentda ham ofisimizni ochmoqchimiz.

Ichki sayyohlik bo‘yicha ham alohida rejalarimiz bor. Bu borada maktab o‘quvchilari o‘rtasida yurtimizning sayyohlik salohiyatini doimiy targ‘ib qilyapmiz. Qolaversa, vodiy ahlini Toshkent, Samarqand, Buxoro bo‘ylab sayohatga jalb etib kelmoqdamiz. Shu orqali ichki sayyohlikni rivojlantirishga o‘z hissamizni qo‘shyapmiz.

Yurtimizda bo‘lib o‘tayotgan ushbu tadbir yangi-yangi hamkorlarni topish, faoliyat yo‘nalishlarimizni va jug‘rofiyamizni yanada kengaytirish, pirovardida, turizm rivojiga munosib ulush qo‘shishga zamin yaratadi.

DARAXT EKISH BOSHLANDI

ENDI KO‘CHATLAR TO‘LIQ KO‘KARADI(MI)?

Ko‘hna davrlarda va yaqin tarixda ham hududlarni o‘zlashtirishning klassik tamoyili mavjud bo‘lgan. Oldin daraxtlar ekilgani uchun ular o‘sha yerda mikroiqlim hosil qilgan. Keyin yer osti suvlari yuqoriga ko‘tarilgan. Bu yerlarda dehqonchilik uchun sharoit tug‘ilgan va kichik ko‘llar paydo bo‘lgan. Shu tariqa yam-yashil vohalar vujudga kelgan.

Tadqiqotlarga qaraganda, bir gektar maydondagi daraxtlar bir kecha-kunduzda 220-275 kilogrammgacha karbonat angidrid gazini yutib, 180-215 kilogramm kislorod ajratadi. Bu miqdor o‘rtacha 500 kishini kun davomida kislorod bilan ta’minlashga yetadi. Boshqacha aytganda, to‘rtta daraxt bir kishining kislorodga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi.

Davlatimiz rahbari o‘tgan hafta poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi Oqtepa va Bog‘zor mahallalariga tashrifi chog‘ida jamoatchilik vakillari bilan birga ko‘chat ekib, “Yashil makon” loyihasi doirasida kuzgi daraxt ekish mavsumini boshlab berdi.

Ushbu loyiha boshlanganidan buyon o‘tgan 2 yilda uy-joy massivlarida 1 ming 200 gektardan ortiq yashil bog‘ va jamoat parklari, 1 million gektardan ziyod yashil hudud va qoplamalar barpo etildi.

— Prezidentimiz tashabbusi bilan daraxt ekish, yashil hududlarni kengaytirish keng ko‘lam kasb etib, umumxalq harakatiga aylangan, — deydi O‘rmon xo‘jaligi agentligi direktori Nizomiddin Bakirov. — Xususan, joriy yilning o‘zida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida jami 457,1 gektar maydonda yashil bog‘larni barpo etish belgilangan. Mazkur reja ijrosini ta’minlash maqsadida mahalliy kengashlarning ana shunday maskanlarni barpo etish uchun yer ajratish bo‘yicha tegishli qarorlari qabul qilinib, “Yashilloyiha” loyihalash instituti tomonidan loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqildi hamda “Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi” davlat unitar korxonasida ekspertizadan o‘tkazildi.

Bugungi kunda “Yashil hudud” DUK va uning joylardagi korxonalari tomonidan “yashil bog‘lar”ni barpo qilish uchun yer tayyorlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-martdagi tegishli bayoni bilan joriy yilda Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanidagi tog‘li va tog‘oldi hududlarda 34 ta vazirlik hamda idoralar tomonidan yashil bog‘lar tashkil etilishi belgilangan. Ushbu topshiriq ijrosini ta’minlash uchun shu yil bahor mavsumida jami 326 gektar maydonda 146 ming tup daraxt hamda buta ko‘chatlari ekildi.

Hozirgi kunga qadar “Yashil hudud” DUK tomonidan loyiha-smeta hujjatlari asosida 65 gektar yerda Tog‘-kon sanoati va geologiya, 50 gektarda Iqtisodiyot va moliya vazirliklari, 25 gektar maydonda “Biznesni rivojlantirish banki” ATB yashil bog‘larini tashkil etilishi ko‘zda tutilgan. Ayni paytga qadar bu maydonlarning 50 ming gektarga yaqin qismida yer tayyorlash ishlari amalga oshirilgan bo‘lsa, Raqamli texnologiyalar vazirligi va “Asakabank” ATB bog‘larini tashkil etish bo‘yicha sa’y-harakatlar davom ettirilmoqda.

Hududlarda yashil bog‘lar barpo etish ishlari joriy yil kuzgi ko‘chat ekish mavsumida to‘liq yakuniga yetkazilib, 1 yildan 3 yilga qadar parvarishlash ishlari olib borilishi rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda O‘rmon xo‘jaligi agentligi hamkorlikda “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlari asosida 56 ta mahalla tanlab olinib, o‘rmon xo‘jaliklari tomonidan 190 ming tup ko‘chat yetkazib berish ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 11-oktabr kuni “Yashil makon” kuzgi mavsumini tashkil etish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda umummilliy loyihaning amalga oshirilishi ko‘rib chiqilar ekan, 25-oktabrdan 1-dekabrgacha “kuzgi daraxt ekish mavsumi” e’lon qilinganligi qayd etildi.

Buning uchun Respublika shtabi tashkil qilinadi. Fanlar akademiyasi, Tuproqshunoslik, O‘rmonchilik institutlari, o‘rmon xo‘jaliklari rahbarlari ham shtabga a’zo bo‘ladi. Shtab tuproq tahlili, iqlim sharoiti asosida qayerga, qachon, qaysi ko‘chat turini qancha ekishni belgilab beradi.

Mutasaddilarga barcha tuman va mahallalarda bir oy davomida ko‘chat yarmarkalarini tashkil qilish va kuz mavsumida 30 million tup ko‘chat yetkazib berish topshirildi. Har bir mahalla va tumanda qaysi daraxt yaxshi ko‘karishini odamlarning o‘zi yaxshi bilishi, shu bois, ko‘chat turini aholi bilan bamaslahat tanlab olinishi aytildi.

Bu mavsumda 85 million tup ko‘chat o‘tqazilishi mo‘ljallangan. O‘rmon xo‘jaligi agentligi tomonidan har bir mahallaga 200 tupdan ko‘chat bepul yetkazib beriladi. Bundan tashqari, har bir viloyat hokimi ham 300 ming tup ko‘chatni mahallalarga tekinga tarqatadi. Shuningdek, 15-oktabrdan barcha tuman va mahallalarda ko‘chat yarmarkasi tashkil qilinadi.

Davlatimiz rahbari yig‘ilishda kuzgi mavsumda o‘tgan yillardagi xatolarni takrorlamaslik shartligiga alohida e’tibor qaratgani bejiz emas. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2022-yildagi o‘rganishlari natijalariga ko‘ra, 3,4 million tup ko‘chat sug‘orish tizimi mavjud bo‘lmagan joylarga, 341 ming tupi tabiiy iqlim sharoitlari hisobga olinmasdan, 65 ming ko‘chat talab qilingan masofaga rioya qilinmagan holda ekilgan, 2,4 million tup ko‘chat sug‘orilmagani va parvarishlanmagani oqibatida qurib qolgan.

Bosh prokuraturaning joriy yil may oyida e’lon qilgan ma’lumotlariga ko‘ra, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar ahvoli joylarga chiqqan holda o‘rganilganda, ijobiy holatlar bilan bir qatorda, mas’ullar tomonidan belgilangan vazifalarga sovuqqonlik bilan qarash, ko‘zbo‘yamachilikka yo‘l qo‘yib, ko‘rsatkichlarni bo‘rttirib ko‘rsatish holatlari aniqlanmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida sug‘orish tizimlari mavjud bo‘lmagan hududlarga ko‘chatlar ekilishi hamda mas’ullarning e’tiborsizligi natijasida jami 333,1 ming tup ko‘chat nobud bo‘lishiga yo‘l qo‘yilgani, bajarilgan ishlar hajmiga elektron platforma orqali amalda ekilmagan jami 136,1 ming tup ko‘chat qo‘shib yozilgani aniqlangan.

Toshkent viloyati Ohangaron tumanida obodonlashtirish xizmati tomonidan jamoat joylarida 127,5 ming tup ko‘chat ekilgani qayd etilsa-da, amalda ko‘chatlarning aksariyati (90 foizi) qayta ekish uchun mo‘ljallangan pitomniklardagi qalamchalar bo‘lib, markaziy ko‘chalarga ekilgan ko‘chatlarning 30 foizi sug‘orilmaganligi va agrotexnik tadbirlar amalga oshirilmaganligi natijasida qurib, o‘suvchanlik qobiliyatini yo‘qotgan.

Sirdaryo viloyatida jami 1 ming 355 tup daraxt ko‘chatlari, Xorazm viloyati Tuproqqal’a tumanida ekilgan 3,5 ming tup ko‘chatlarning yarmidan ko‘pi qarovsizlik oqibatida nobud bo‘lgan.

Shu bois, mahalliy davlat hokimiyati organlari va idoralar rahbarlarining 29 nafariga qonunchilikda belgilangan javobgarlik masalasi ko‘rilayotgani bildirilgandi.

Davlatimiz rahbari tomonidan o‘rmon xo‘jaliklarida 5 million tup daraxt ekish, chiqindi poligonlari atrofida va yirik sanoat korxonalari hududida “yashil belbog‘” yaratish, dala chetlarida 20 million tup terak, tut va uzum ekish, bog‘cha, maktab, oliygoh va shifoxonalar hududida 3,5 million tup ko‘chat ekish, Orolning qurigan tubida 100 ming gektarda “yashil qoplama”lar barpo etish rejalari qo‘llab-quvvatlandi.

— Sho‘rlangan yerlarda sho‘rga chidamli, qumloq yerlarda qumda yaxshi o‘sadigan, qurg‘oq, suvi kam yerlarda suvsizlikka chidamli bo‘lgan, sharoitdan kelib chiqib yuqori hosil beradigan daraxt navlarini ekish va har bir qarich yerdan unumli foydalanish mas’uliyatini hammamiz his qilishimiz kerak, — deydi Farg‘ona politexnika instituti professori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori Odiljon Ibrohimov.

— Farg‘ona viloyatida tumanlarning iqlim sharoitidan kelib chiqib, kashtan, lola daraxti, lipa, oqqayin, eman, yapon saforasi, katalpa, shumtol, qayrag‘och, pavloniya, zarang, akatsiya, terak, chinor, hind sireni, jiyda, yong‘oq va boshqa mevali daraxt ko‘chatlarini ekishga alohida ahamiyat berish taqozo etiladi.

“Yangi O‘zbekiston” gazetasida shu hafta boshida e’lon qilingan O‘zbekiston mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, xotin-qizlar va yoshlar vakillarining xalqimizga murojaatnomasida ta’kidlanganidek, “Birgina ko‘chat yetishtirish bo‘yicha to‘xtaladigan bo‘lsak, mamlakatimizda bir yarim ming fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari tomonidan 81 milliondan ziyod tut, tok, tol, yong‘oq va boshqa nihollar parvarishlanmoqda.

Bu savobli ishlarni davom ettirish uchun har bir xonadon egasi o‘z tomorqasiga, mahalla guzari va ko‘chasiga 10 tupdan ko‘chat eksa, yurtimiz bo‘ylab o‘rtacha 55 million daraxt bunyod bo‘ladi.

Fermerlarimiz “Bir dala — bir mahsulot” tamoyili asosida o‘z hududiga tut, tok, terak va boshqa ko‘chatlarni eksa, har bir qarich yerimiz bog‘-rog‘larga aylanadi”.

Haqiqatan shunday. Buni Farg‘ona viloyati Beshariq tumanining “Qiyali” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiga qarashli 700 gektar cho‘l maydoning o‘tgani yili qaytadan o‘zlashtirilgani misolida ham ko‘rish mumkin. Hududning sug‘orish tizimini yo‘lga qo‘yish uchun viloyat mahalliy byudjeti hisobidan 5 milliard so‘m mablag‘ sarflanib, 5 ta tik quduq qazildi, 1 ta suv nasosi o‘rnatildi, 1,7 kilometr yangi sug‘orish tarmog‘i qazildi.

O‘zlashtirilgan maydonning 500 gektari qovunchilik, 200 gektari tut hamda terak ko‘chatchiligi uchun ajratildi va 1000 nafardan ziyod yoshlar, ishsiz, kam ta’minlangan oilalarga 20 sotixdan 1 gektargacha yer bo‘lib berildi. Shuningdek, ushbu massivdan 31 gektar yer maydoni tumandagi 62 ta mahalla fuqarolar yig‘ini uchun ajratildi va faollar tomonidan hashar yo‘li bilan terak ko‘chatlari ekildi.

Tadqiqotlar vodiyning tabiiy-iqlim sharoitida asosan, ko‘kterak, oqterak, mirzaterak, kaliforniya teraklari ekish maqbulligini ko‘rsatadi. Eng avvalo, bu turdagi daraxtlar manzarali bo‘lishi va joy tanlamasligi sababli ihota va o‘rmon muhofazasi, ko‘kalamzorlashtirish ishlarida muhim ahamiyatga ega. Masalan, mirzaterak va oqterak 30 yilgacha rivojlanib, 60-70 yil davomida yashaydi. Yog‘ochi 8-10 yilda yetiladi va gektaridan 500-900 kub metrgacha yog‘och mahsuloti olinadi. Bu mebel va sellyuloza-qog‘oz sanoati uchun muhim xomashyo sanaladi. Uning sellyulozasidan gazlama, pishitilgan ip tolasi ham tayyorlash mumkin.

Yurtimizda shunday fermer xo‘jaliklari borki, faqat dala va yo‘l chetlariga, ariq, suv bo‘ylariga ekilgan o‘rik, olma, anor, uzum, xurmo, yong‘oq, pista, bodom, jiyda kabi mevalardan katta miqdorda hosil yig‘ib olmoqda. Ular yuqori sifatli hosil berishi bilan birga, ko‘chalarga fayz, dalalarga fusunkorlik baxsh etyapti. Ularning yana bir qulaylik tomoni shundaki, bu mevalar tog‘da ham, dashtda ham, qumda ham o‘sadi, rivojlanib meva beradi.

Yong‘oqni olaylik. Bir qator qilib, 6 metrga 1 tupdan joylashtirilganda, uning 227 tupi bir gektarni egallaydi. Dastavval 40-50 kilogramm, yettinchi yildan boshlab 100-150 kilogramm hosil beradi. Bozor bahosidagi narxini ikki barobar kamaytirib, xarajatlarni chiqarib tashlaganda, yiliga eng kamida 150 million so‘m sof foyda qoladi. Asosiysi, yong‘oq mevasining sifati buzilmaydi, uzoq saqlanadi, olis masofalarga olib borish uchun ham alohida e’tibor talab qilinmaydi.

Prezidentimiz joriy yil 23-mart kuni qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda dala chetlarida mahsulot yetishtirishni ko‘paytirishning ustuvor vazifalarini ham belgilab bergan edi. Shundan so‘ng Kadastr agentligi tomonidan o‘tkazilgan xatlovda 60 ming gektarga yaqin dala chetlaridan to‘liq foydalanilmayotgani aniqlangani aytilgandi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, bu maydonlardan unumli foydalanish orqali 337 ming tonna qo‘shimcha mahsulot olish imkoniyati bor.

Davlatimiz rahbari bu masalaga o‘tgan haftada o‘tkazilgan yig‘ilishda e’tibor qaratib, yanada mas’uliyatli vazifalarni belgilab berishi barobarida aholining daraxt ekishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va rag‘batlantirish ishlarini yanada kuchaytirish zarurligi, Jamoat ishlari jamg‘armasi mablag‘lari bundan buyon mahallalarning o‘ziga, ular esa bu mablag‘ni daraxt ekish, parvarishlash va tozalik tadbirlariga yo‘naltirishi ta’kidlandi.

Orzu-havas bilan ekilgan nihol kun kelib mevayu yaproq beradi, bundan el-ulus bahramand bo‘lsa, taratgan toza havosi, ko‘rki-tarovatidan chor-atrof yasharadi, yashnaydi. Zero, 2021-yil bahorida “Yashil makon” umummilliy loyihasi e’lon qilinib, 200 million tup daraxt ko‘chati ekish rejalashtirilgan edi. O‘tgan yil kuz oyi davomida 85 million tup ko‘chat o‘tqazildi. Shu yil ko‘klamda 125 million tup turli daraxt ko‘chatlari ekildi. Start olgan kuzgi mavsumda ular soni yana 85 million tupga ko‘payishi rejalashtirilgan. Nasib etsa, yaqin istiqbolda ular soni bir milliardga yetadi.

Abdurauf QORJOVOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

HUDUDLAR HAYOTI

QO‘SHRABOTNING TAYANCH NUQTALARI

Qo‘shrabot Samarqand viloyatining shimoliy qismida, asosiy transport yo‘llaridan uzoqda joylashgan tuman. Asosan, chorvachilik va uzumchilik rivojlangan bu hududda so‘nggi yillarda sanoat, qurilish, tadbirkorlik va boshqa sohalar ham jadal taraqqiy eta boshladi.

Yerto‘lada boqilayotgan quyonlar

“Qiyqim” mahalla fuqarolar yig‘inida yaqinda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda mahalliy hokimlik bilan hamkorlikda yerto‘lada quyon yetishtirish va boqish texnologiyasi asosida innovatsion quyonxona tashkil etilgan.

Yerto‘ladagi quyonxonalarning uzunligi besh, kengligi ikki metr. Tomi tashqi tomondan maxsus tunuka, ichkaridan esa jun bilan qoplangan. Bu issiq havoda tom qizib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shuningdek, yerto‘lada suv va ozuqa uchun idishlar mavjud. Ozuqa idishi maxsus to‘rdan yasalgan bo‘lib, u xashak va yem to‘kilishining oldini oladi. Bitta yerto‘la 26 ta quyonga mo‘ljallangan.

Mutaxassislarning dastlabki hisob-kitoblariga ko‘ra, bu innovatsion quyonchilik fermasidan yiliga 1,5-2 tonna parhez go‘sht yetishtirish mumkin. Ushbu qurilma barcha jihozlarni hisobga olgan holda 33 million so‘m turadi. Fermada ikki tonna go‘sht yetishtirilayotgani, tirik quyonning bir kilogrammi 30 ming so‘m ekanini inobatga olsak, bu juda yaxshi ko‘rsatkichdir.

Mazkur kichik innovatsion fermada 120 million so‘mlik quyon go‘shti yetishtiriladi. Agar 60 million so‘m xarajatlarga ketsa, 60 million so‘m oilaning sof daromadi bo‘ladi. Ya’ni bu yerda bir oila oyiga besh million so‘m sof daromad topadi.

Quyon boqishning bu usuli energiya resurslarini umuman talab qilmaydi. Ya’ni elektr yoki tabiiy gazga ehtiyoj yo‘q. Chunki yerto‘la qishda issiq, yozda esa salqin. Bu quyonlarning normal rivojlanishi uchun juda mos sharoit. Sababi, tabiatda quyonlar yer ostida ko‘payadi. Qolaversa, aholi bandligini ta’minlash, oilalar daromadini oshirishda bu usul eng ma’qullaridan biri, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Tashkilotchilarning aytishicha, loyihaning dastlabki bosqichi “Qiyqim” fuqarolar yig‘inida boshlangan. Biroq bu katta ishning boshlanishi, xolos.

Kelgusi yilda Samarqand viloyatida 300 ta xonadon uchun ana shunday konteynerlar tashkil etish va bu orqali aholi bandligini ta’minlash, daromadlarini oshirish rejalashtirilgan. Loyihani ommalashtirish maqsadida yaqinda bu yerda viloyat miqyosida o‘quv seminari tashkil etildi. Mutaxassislar yerto‘lada quyon parvarish qilish bo‘yicha ma’lumot va tavsiyalar berdi. Mazkur loyiha doirasida kredit evaziga quyonlar uchun qafaslar quriladi. Quyon yetkazib berish va ularni yem bilan ta’minlash ham tashkilotchilar zimmasida bo‘ladi.

Loyiha tashkilotchilari aholidan mahalliy zotli quyonlarni ham sotib oladi. Buning uchun tumanda markazlashtirilgan korpus va o‘quv markazi tashkil etiladi. Yem ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Aytish kerakki, qishloqda quyonni bu tarzda ko‘paytirish qiyin emas. Chunki har bir xonadonning o‘z bog‘i bor, u yerda quyonga ozuqa yetishtiriladi. Bu esa ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Dunyoda quyonchilik fermalarining 95-98 foizi go‘sht uchun “hay kol” quyon zotlaridan foydalanadi. Bu quyon zoti iqlimimizga moslashgan. Shu bois, Qo‘shrabotda aynan shu zotli quyonlar boqilyapti.

Quyon go‘shti foydali bo‘lib, unda inson salomatligi uchun lesitin kabi moddalar mavjud. U mineral tuzlar, kalsiy va fosforga boy. Ushbu ijobiy xususiyatlari tufayli quyon go‘shti jigar, oshqozon, yurak-qon tomir tizimi, diabet va allergiya bilan og‘rigan bemorlarga tavsiya etiladi. Bundan tashqari, undan tabiiy va qimmatbaho mo‘yna olinadi.

Quyon terisi charm buyumlar va poyabzal ishlab chiqarish uchun yuqori sifatli xomashyodir. Bir kilogramm quyon junidan 2000 metr yuqori sifatli ip olish mumkin. Muxtasar aytganda, bu uzun quloqli hayvonning foydasi ko‘p. Shu bois, sohani rivojlantirish, go‘shtning bu turini iste’mol qilishni ko‘paytirish muhim ahamiyatga ega.

Oziqlantirish quvvati jihatidan 1 kilogramm quyon go‘shti eng yaxshi mol go‘shtining 1,45 kilogrammiga teng. Bundan tashqari, uning go‘shti qo‘y, qoramol va boshqa hayvonlar go‘shtiga nisbatan kam xolesterin saqlaydi.

Markaziy Osiyoda yetakchi majmua

“Xonnazar” fuqarolar yig‘inidagi “Qo‘shrabot-Lomman-parranda” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli parrandachilik majmuasi o‘tgan yili 3,7 million AQSH dollari, shundan 2,7 million dollari korxona ta’sischilari shaxsiy mablag‘lari hisobidan barpo etildi. Mahsulot ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar va jihozlar Germaniyadan keltirildi. Bu yerda har oyda 700 ming bosh naslli tovuq yetishtirilib, mahsulot ichki bozordan tashqari Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Rossiyaga eksport qilinadi.

— Majmuamiz naslli, zotli tovuq yetishtirish va eksport qilish bo‘yicha Markaziy Osiyoda birinchi o‘rinda turadi, — deydi korxona rahbari Sherzod Ahmedov. — Yillik eksport salohiyatimiz 1 million AQSH dollari. Viloyatdagi ishsiz aholining aksariyat qismini ish bilan ta’minlash maqsadida ularga imtiyozli kredit asosida tovuq tarqatyapmiz.

Korxonaning ishga tushirilishi viloyatda nasldor parrandachilikni rivojlantirishga turtki bo‘ldi. Mahalliy aholi va korxona o‘rtasida parrandachilik kooperatsiyasi yo‘lga qo‘yilib, aholiga 120 kunlik nasldor tovuqlar kredit evaziga yetkazib berildi, korxona ulardan tuxum sotib olyapti.

Qo‘shrabot tumanida 100 ta xonadonga 15 ming bosh tovuq tarqatildi. Bu hududda yil oxirigacha jami 150 ming bosh tovuq taqsimlanadi va aholi uchun doimiy daromad manbai yaratiladi. Natijada tumanda tuxum yetishtirish yiliga 27 million donaga ko‘payadi.

Obyekt foydalanishga topshirilishi bilan 45 kishi doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi.

Lavanda Yevropaga yo‘l oladi

Hududning iqlim sharoiti dorivor o‘simliklarning ayrim noyob turlarini yetishtirish uchun qulay. Keyingi yillarda bu yerda lavanda va jambil yetishtirish uchun qo‘shimcha 200 gektar lalmi yer ajratildi. Shunday qilib, hududda lavanda ekilgan umumiy maydon 500 gektarga yetdi.

Loyihaning keyingi bosqichida lavandani qayta ishlash va tayyor mahsulotni eksport qilish rejalashtirilgan. Mazkur loyihaning muhim jihati shundaki, kompaniya dunyoda birinchi marta 500 gektar maydonda lavanda plantatsiyasini, shuningdek, lavandani qayta ishlashning zamonaviy korxonasini quradi. Keyingi bosqichda esa 5 million AQSH dollariga teng lavanda gullari, efir moyi qayta ishlanadi. Lavanda mahsulotlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri Yevropa mamlakatlariga jo‘natiladi. Keyinchalik bu loyiha tumandagi xonadonlarda ham davom ettiriladi.

Loyiha orqali yana 200 nafar ishsiz fuqaro mazkur sohada doimiy va mavsumiy ish bilan ta’minlanadi.

Ayollar hunar, yoshlar raqamli texnologiyalarni o‘rganmoqda

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 21-sentabrdagi qarori ijrosi doirasida tumanning “Namuna” fuqarolar yig‘inida xotin-qizlar bandligini ta’minlash va salomatligini mustahkamlash markazi tashkil etildi.

Markazda mahalliy hunarmand Dilafro‘z Saidova tikuvchilik bo‘yicha ustoz-shogirdlik an’anasini yo‘lga qo‘ydi.

— Bu yerda kasb-hunar, tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘rgatish kurslari tashkil qilindi, — deydi u. — Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishlamoqchi bo‘lgan 10 nafar ishsiz xotin-qizni grant tanlovida ishtirok etish orqali bandligini ta’minlash bo‘yicha samarali loyihalar taqdim etdik.

Tuman Yoshlar markazi binosida esa raqamli texnologiyalar bo‘yicha o‘quv markazi 2021-yil iyun oyidan boshlab faoliyat ko‘rsatmoqda. IT markazida yoshlarning sifatli ta’lim olishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Jumladan, o‘g‘il-qizlar tezkor internet va zamonaviy kompyuterlardan foydalanadi.

— Hozir ushbu markazda 3 nafar mutaxassis yoshlarga ta’lim bermoqda, — deydi tuman hokimining yoshlar siyosati masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Xolbek Kubayev. — Bugungi kunga qadar 300 nafardan ortiq yosh zamonaviy IT kasblarga o‘qitildi. Hozir 62 nafar yosh robototexnika, kompyuter savodxonligi, front-end dasturlash, mobil dasturlash, ijtimoiy media marketingi, grafik dizayn va ingliz tili kurslarida tahsil olmoqda.

Bahaybat qushlar ozuqa tanlamaydi

O‘tgan yilning dekabr oyida “Tinchlik” fuqarolar yig‘inida yashovchi Xoliyor Usmonov qo‘shni viloyatdan sakkiz oylik 7 ta tuyaqush olib kelgan edi. Bu bahaybat qushlar tez orada oilaning sevimli jonivorlariga aylandi. Hozir ularning har birining vazni 70 kilogrammga yetdi.

— Bu ulkan qushlar mutlaqo ozuqa tanlamaydi, o‘t-o‘landan tortib daraxt bargigacha yeydi, — deydi Xoliyor aka. — Ammo tuyaqushlar odamlarni, ularning munosabatini juda yaxshi ajrata oladi. Ularga mehr bilan munosabatda bo‘linganini darhol his qiladi. Har oy qushlarning vazni 10 kilogramm oshyapti. Bundan tashqari, tuyaqushlar qishda sovqotmaydi, yozning jaziramasi ham ta’sir qilmaydi. Qarang, tuyaqushlarning bo‘yi allaqachon mendan baland bo‘lib qolgan.

Xonadon egasi kelgusida tuyaqushlar sonini 5 barobar ko‘paytirish niyatida.

Yormamat RUSTAMOV,
jurnalist

Innovatsion g‘oya, noan’anaviy biznes, yuqori texnologiyaga asoslangan yechimlar, investitsion jozibadorlik, jamoaviy qadriyatlar — bularning barchasi mamlakatimiz bo‘ylab o‘tkazilayotgan “InnoWeek-2023” innovatsion g‘oyalar haftaligi kun tartibidan o‘rin olgan.
“Kreativ ta’lim va innovatsiya — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosi” shiori ostida o‘tayotgan haftalik yangicha fikrlaydigan mehnat jamoalari, intellektual salohiyat egalari uchun g‘oyalar almashish hamda qulay muloqot platformasi vazifasini o‘tamoqda. O‘zgacha shukuh kasb etgan haftalik davomida panel uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etilyapti. Xorijiy va milliy ekspertlar, tahlilchilar yangi O‘zbekistondagi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasidagi islohotlar mohiyati, erishilgan yutuqlar va galdagi dolzarb vazifalar, vujudga kelayotgan mutlaqo yangi rivojlanish muhiti to‘g‘risida fikr almashmoqda.

INTELLEKTUAL KENGLIK SARI QADAM

Innovatsion g‘oyalar haftaligidan dastlabki taassurotlar

Poytaxtimizda tashkil etilgan “InnoWeek-2023” ko‘rgazmasida “Ilm-fan va tijoriylashtirish loyihalari”, “Yoshlar akademiyasi”, “Startap loyihalar”, “Kreativ ta’lim” va “Xorijiy davlatlar” burchaklarida 150 ga yaqin tashkilot 200 dan ziyod innovasion mahsulotini namoyish etmoqda.

Ilm-fan yangiliklari nafaqat Toshkent shahrida, balki yurtimizning barcha hududida namoyish etilayotgani haftalikning e’tiborga molik jihatlaridan. Haftalikka 20 dan ziyod mamlakatdan 250 dan ortiq ekspert, Janubiy Koreya, Germaniya, Malayziya, Rossiya hamda Eron kabi mamlakatlardan 90 ga yaqin innovatsion korxona jalb etilgan. Ular intellektual salohiyat mahsuli bo‘lgan yangi ishlanmalarini namoyish etish barobarida o‘zbek olimlari, mahalliy ishlab chiqarish korxonalari bilan foydali bitim va kelishuvlarga erishishi kutilmoqda.

Kuzgi tijoratlashtirish forumi doirasida tashkil etilgan ko‘rgazma ham ishtirokchilar e’tibor markazida. Unda bahorgi tijoriylashtirish forumida saralab olingan, tarmoq muammosi yechimiga qaratilgan startap loyihalar o‘rin olgan.

— Mamlakatimiz bo‘ylab o‘tayotgan haftalikka ijodkorlik, kreativlik asos qilib olindi. Bu haftalik yuksak intellekt egalari, ijodkorlar, yangilik yarataman, yangi innovatsiyalarga qo‘l uraman, degan barcha yurtdoshlarimiz, xorijiy hamkorlarimizni muloqot platformasida jamladi, — dedi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri Ibrohim Abdurahmonov. — Yuksak e’tibor tufayli ilm-fan va ta’lim borasida ham dadil odimlayapmiz. Global innovatsion indeksda O‘zbekistonning ijodkorlik muhiti, kreativlik yo‘nalishidagi maqomi tobora yuqorilab bormoqda. Bu juda katta ishonch beryapti. Salohiyatli yoshlar jamoasi va xalqaro hamkorlarimiz sa’y-harakati bilan ijodkorlik muhitini yanada rivojlantirishga erishamiz. Mamlakatimiz iqtisodiyotini fan va texnologiyalar bilan jadal taraqqiy ettiramiz.

Haftalikning bu yilgi qamrovi har doimgidan ko‘ra keng. Yangi ishlanmalar soha vakillari bilan birga qalbida yangilik yaratish, amaliyotga tatbiq etish ishtiyoqi bilan yashayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, korxona va tashkilotlar vakillari, talabalar e’tiborini tortmoqda. Shukuhli tadbir yurtimizdagi barcha oliy ta’lim muassasasi, innovatsion tumanlargacha kirib borgani kelgusida faoliyatini moddiylikdan intellektual kenglikka ko‘chira olishga qodir yoshlar jamoasi shakllanishiga zamin yaratayotir.

Ko‘rgazmada tibbiyotda molekulyar allergologiyadan tortib DNK darajasida aniq tashxis qo‘yadigan biotexnologik ishlanmalar, bugun juda dolzarb bo‘lgan tibbiyot texnikasi, kon-metallurgiya sanoati uchun zarur texnologiyalar, gapiruvchi maxsus robotlar namoyish etilmoqda. Bularning barchasi ta’limga innovatsiyalarni joriy qilish, kreativlikni rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

— Yangi O‘zbekistonni barpo etishda yoshlarning o‘rni juda katta, — deydi Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Dilorom Toshmuhammedova. — Yoshlarning ilm-fanda salohiyatini ro‘yobga chiqarish nihoyatda muhim. Shu nuqtayi nazardan, bugungi islohotlar zamirida ilm-fan, kreativ rivojlanish, yangicha yondashuvlar turibdi. Shundagina yuksak marralarga erishamiz. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham aynan ta’lim, ilm-fan rivojiga juda katta e’tibor qaratilgan. 2030-yilgacha O‘zbekistonning Global innovatsion indeks ro‘yxatidagi yetakchi 50 davlat qatoriga kirishi masalasiga jiddiy e’tibor qaratilyapti. Fundamental ishlanmalar yaratish, ilm-fan va amaliy tadqiqotlarni jadallashtirish, kreativ iqtisodiyot ravnaqi uchun keng imkoniyat yaratilmoqda. “InnoWeek” haftaligi mana shu islohotlarning bir ko‘rinishi, desak xato bo‘lmaydi.

Ilm-fan yangiligi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Jumladan, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon shaklidagi ijodiy mehnat — startaplarga e’tibor katta joyda taraqqiyot yuqori darajaga ko‘tariladi. Haftalik doirasida tashkil etilgan Turkiy dunyo yoshlarining ilm va innovatsiyalar xalqaro kongressida ana shu fikrlar yana bir bor tasdig‘ini topdi. Kelgusi 10 yillikdagi muammolar yechimiga qaratilgan startaplar taqdimoti, yoshlar bilan norasmiy uchrashuvlar, yoshlar yetakchilarining davra suhbati, Yoshlar akademiyasi assambleyasi kabi tadbirlar tashkil etildi. Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston yoshlari, ta’lim va ilm-fan sohasi vazirliklari rahbarlari, yosh startapchilardan iborat xorijlik mehmonlar ishtirokida o‘tgan uchrashuvlarda innovatsion g‘oyalar, ishlanma va texnologiyalarni tijoriylashtirish va joriy etish, bu yo‘nalishda forum, xalqaro yarmarka va ko‘rgazmalar tashkil qilish xususida so‘z yuritildi.

Haftalik doirasida O‘zbekistonda startap ekotizimini takomillashtirish uchun Germaniya, Janubiy Koreya, Italiya va BAA ekspertlari ishtirokida “Startup Pitch”, “O‘zbekiston — Koreya startap kuni”, “Eng muvaffaqiyatli startaplar o‘rtasida Demo day” tadbirlari tashkil qilinadi. Bundan tashqari, ilm-fan va innovatsiya sohalaridagi yangi tadqiqotlar, Germaniyadagi turli ta’lim va tadqiqot dasturlari hamda ularda qatnashish shartlari, jumladan, DFG, DAAD va Germaniyaning boshqa yetakchi ilmiy tadqiqot jamg‘armalari, yashil innovatsiyalar, Germaniya va O‘zbekiston o‘rtasidagi qo‘shma ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida qilinayotgan ishlar bilan tanishtiriladi. Shu maqsadda Germaniyadan kelgan ekspertlar ishtirokida “O‘zbekiston — Germaniya ilm-fan kuni”, “Jahon bozori uchun yashil innovatsiyalar”, Germaniyaning nufuzli ta’lim grantlarini qo‘lga kiritgan o‘zbek yoshlari va olmon delegatsiyasi ishtirokida bitiruvchilar forumi tadbirlari tashkil qilinishi kutilmoqda.

— “InnoWeek” haftaligida uch yildan beri ishlanmalarimiz bilan qatnashib kelyapmiz, — dedi Germaniya Federal ta’lim va tadqiqot vazirligi bo‘lim boshlig‘i Gabriyel Hermani. — Bu yil har qachongidan katta delegatsiya bilan keldik. Jumladan, bu yerda fan va ta’lim sohasining 35 vakili biz bilan birga. O‘zbekistonlik hamkasblarimiz bilan fan va innovatsiya sohasida hamkorlik qilayotganimizdan mamnunmiz. Bu haftalik shu hamkorlikni yanada mustahkamlashiga ishonamiz. “O‘zbekiston — Germaniya ilm-fan kuni”da innovatsion muhitni yaxshilash, hamkorligimiz salohiyatini ochib, yanada mustahkamlash haqida fikr almashamiz.

Haftalik doirasida o‘tkaziladigan bu yilgi tadbirlar qamrovi va ko‘lamiga ko‘ra, oldingilaridan tubdan farq qiladi. Ilm-fan, innovatsiya iqtisodiyotga oid barcha yo‘nalishlar qamrab olingan. Birgina “Ilm-fan va tijoratlashtirish kuni”da qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, farmatsevtika, mashinasozlik, sanoat, baliq sanoati, veterinariya, ijtimoiy hamda boshqa qator sohalardagi 100 ga yaqin tashkilotning mahsulotlari bilan ishtiroki kutilmoqda. Tadbir doirasida Belgiya, Slovakiya, Qatar hamda Ozarbayjon olimlari bilan hamkorlikda tijoriylashtiriladigan loyiha hamda texnologiyalar transferi, xususan, maktablar uchun mo‘ljallangan Foldscope optik mikroskopi, Codiplay kompaniyasining xususiy maktablar uchun mo‘ljallangan innovatsion dasturlari, sun’iy intellekt asosida ishlaydigan sun’iy nafas oldirish apparati, Qatarning Bonokl tashkiloti ko‘zi ojiz insonlarga mo‘ljallab ishlab chiqargan qurilma taqdimoti bo‘lib o‘tadi.

Ilg‘or texnologiyalar markazi bu yil beshinchi marotaba o‘tkazadigan “Fan va innovatsiya” yosh olimlar yillik xalqaro konferensiyasi ilm-fan va innovatsion jarayonlarni rivojlantirishning dolzarb muammolariga bag‘ishlanadi. Unda ilmiy-amaliy tajriba, ilmiy yutuqlar va innovasion jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha fikr almashiladi. Anjumanda O‘zbekiston, Daniya, Portugaliya, Xitoy, Misr, Buyuk Britaniya, Belarus, Rossiya, Tojikiston, Gruziya, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Armaniston, Qozog‘istondan 500 nafardan ortiq yosh olim va yetakchi mutaxassis ishtirok etadi.

O‘zbekistonda olimlarni ilmiy tadqiqot ishlariga faol jalb qilish va qulay shart-sharoit yaratish, ilmiy tadqiqot ishlari sifatini oshirish maqsadida Germaniya tadqiqot fondi (GDF) bilan vorkshop, Jahon bankining “O‘zbekiston milliy innovasion tizimini modernizatsiya qilish” (MUNIS) loyihasining joriy faoliyati va kelgusi rejalar, mamlakatimiz olimlarining noshirlik va patent faoliyati mavzusida davra suhbati, texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining ilmiy va ijtimoiy tadqiqot natijalarini tijoriylashtirishga doir tadbirlar tashkil etiladi.

— Katta kelishuvlar rejalashtirilgan, — deydi Innovatsion rivojlanish agentligi direktori Olimjon To‘ychiyev. — Tadbirning eng asosiy hamkorlaridan biri — Koreya Respublikasi delegatsiyasi tarkibida 80 dan ortiq vakil kelgan. O‘nta universitet, texnoparklar, ishbilarmonlar barchasi hozir O‘zbekistonda yangi texnologiyalarni transfer qilish bilan birga, biz ishlab chiqqan yangi texnologiyalarni joriy etish masalasida fikr almashiladi. Eng muhimi, haftalik davomida olimlar va ishbilarmonlar o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, yangi innovatsion ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishga doir muhim kelishuvlar imzolanadi.

Haftalikda talabalarga zamonaviy bilim va ko‘nikma berish, ilmiy va innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, innovatsion tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlash bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari rektorlari ishtirokida birinchi marta Kreativ ta’lim kongressi bo‘lib o‘tadi.

Shu bilan birga, innovatsion tumanlardagi professional ta’lim muassasalari direktorlari forumi ish boshlaydi. Forumda yurtimizning 28 innovatsion hududidan kelgan professional ta’lim muassasalari direktorlari hamda xorijiy hamkor tashkilotlar vakillari ma’ruza bilan ishtirok etadi. Tadbirda kreativ ta’lim sohasini rivojlantirish uchun xorijiy va mahalliy ekspertlar bilan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida professional ta’lim tizimi sohasidagi islohotlar hamda xorijiy davlatlarning ushbu sohada erishgan yutuqlari yuzasidan fikr almashiladi.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

TIL — MILLAT KO‘ ZGUSI

So‘zi go‘zalning — o‘zi go‘zal

ENDI JOYLARNI NOMLASHDA MAHALLIY AHOLI FIKRI INOBATGA OLINADI

Yurtimiz qiyofasi kundan-kun chiroy ochmoqda. Bu mehnatkash va bunyodkor xalqimizning g‘ayrat-shijoati sharofatidan, albatta. Lekin shunday e’tiroflar ona tilimizga bo‘lgan munosabatimizga ham mos keladimi? Ochig‘i, bu savolga javob berishda bir oz o‘ylanib qolishimiz rost.

Hayotxon MAHMUDOVA,
To‘raqo‘rg‘on tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi

O‘zbek tilimiz mavqeini tiklashga istiqlol arafasidayoq jiddiy qaralgan. “Davlat tili haqida”gi qonun rasman 1989-yilning 21-oktabrida qabul qilingan. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng boshqa ko‘p muammolar qatori tilga e’tibor dolzarb masalaga aylandi. Chunki o‘zbek tilining xalqaro maydondagi obro‘-nufuzini yuksaltirish, mamlakatimizning jahon kommunikatsiya tizimiga integratsiyalashuvini ta’minlash, yoshlarga chet tillarni, axborot texnologiyalarini har tomonlama puxta egallashga qulay imkoniyatlar yaratish kabi bir-biridan muhim vazifalarni kechiktirmasdan bajarish taqozo etilardi.

Natijada til siyosatiga istiqlol siyosatining uzviy bir qismi sifatida yondashildi. 1995-yil 21-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonuni yangi tahrirda kuchga kirdi. 24 moddadan iborat qonun o‘zbek adabiy tilining huquqiy negizi, poydevoridir. Joriy yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan Referendumda ovozga qo‘yilgan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tilimiz mavqei yana bir karra mustahkamlandi. Uning 4-moddasida ifodalanganidek:

“O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”.

To‘raqo‘rg‘on tumanida ham mazkur qonun talablari asosida talay ishlar amalga oshirilmoqda. 67 ta mahalla, 100 dan ziyod korxona, muassasa, 62 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabi, 44 ta maktabgacha ta’lim tashkilotida targ‘ibot tadbirlari muntazam olib borilmoqda. Ayni paytda jamiki maskanlarda o‘zbek tilida, lotin alifbosida yozuv-chizuv jarayonlari qizg‘in ketmoqda. Alohida “Yo‘l xaritasi” tuzilgan.

Joriy yil mobaynida idoralar rahbarlari, sohalarning mutasaddi kadrlari maxsus o‘quv kurslariga yuborildi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish, viloyat hokimligi huzuridagi Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish markazida lotin yozuvidagi o‘zbek alifbosi, imlo qoidalari va ish yuritishni o‘rgatish kurslari bilan doimiy hamkorlik aloqalari o‘rnatganmiz. Tinglovchilar maxsus sertifikatlarga ega bo‘lmoqda.

2023-yil 15-avgustda Vazirlar Mahkamasining “Geografik obyektlarga nom berish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash, geografik obyektlar nomlarining davlat reyestrini yuritishga doir tadbirlar rejasi izchil bajarilmoqda. Qaror biz uchun ayni muddao bo‘ldi, boisi, endi joylarni nomlash chog‘ida mahalliy aholi fikrini hisobga olish taomili belgilandi. O‘zbekiston yoki jahon tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslarning toifalarini aniqlash, nomini abadiylashtirish ham huquqiy jihatdan tartibga solinmoqda.

Xususan, Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida 518 ta turli obyekt — 1 ta shahar, 13 ta shaharcha, 8 ta qishloq, 20 ta aholi punkti, 67 ta mahalla, 341 ta ko‘cha, 63 ta qabriston, 2 ta xiyobon va 3 ta ziyoratgoh mavjud. Ular nomi tuzatilib, nomsiz ko‘chalar nomlanib, xalq deputatlari tuman kengashining tegishli qarorlari bilan tasdiqlangan. 518 ta obyekt qonunchilikka binoan ma’lum me’yorlarga tayangan holda davlat reyestri bazasiga kiritildi.

Tuman komissiyasi nazorat yuzasidan muayyan natijalarga erishmoqda. Chunonchi xoh davlat, xoh xususiy tashkilot yoki korxona bo‘lsin, peshlavhalariyu tashqi reklamalari lotin alifbosida bexato yozilmoqda. O‘zbek milliy madaniyatiga yot rasm-tasvir va so‘zlardan foydalanmaslik choralari ko‘rilmoqda. Mabodo kamchiliklar uchrasa, tushuntirish, ogohlantirish, nihoyat, o‘z vaqtida bartaraf etish kuchaytirilgan. Ochig‘i, yil davomida xatosi bo‘lgan 29 ta, xorijiy tilda bitilgan 23 ta reklama yangilandi, ya’ni to‘g‘risiga almashtirildi.

Hozirda tuman hokimligidagi “YURIDA — ORFO” kompyuter dasturi faoliyati ibratli. Ayni dastur kundalik ish xatlarida o‘zbek tilidan foydalanuvchilarga mo‘ljallangan. Dastur jo‘natiladigan xatlar, qarorlar, farmoyishlar va boshqa hujjatlarning savod bilan terilishiga ko‘maklashadi. Kirill alifbosidagi matnni lotin alifbosiga va aksiga o‘giradi. Natijasi ancha ijobiy, ya’ni xodimlarga vaqtini tejashda juda qo‘l kelyapti.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Ona tilimiz — milliy ma’naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog‘idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko‘rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir”.

Qayd eish kerakki, bu borada davlatimiz rahbarining o‘zi shaxsiy namuna bo‘lmoqda. Yaqinda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 78-Assambleyasida o‘zbek tilida nutq so‘zlab, ko‘nglimizda g‘urur-iftixor tuyg‘ularini yanada yuksaltirdi. Jahonning yuksak minbaridan yangragan nutqda olamshumul takliflarning o‘rtaga tashlangani yanada sharaflidir.

Demak, tilimiz nufuzi — elimiz nufuzi. O‘zbek tilining qadr-qimmati oshishi uchun nafaqat til bayramida, balki har kuni, har lahza o‘zbek tilida so‘zlashimiz shart. Yosh avlodning o‘zbek tiliga bo‘lgan mehr-muhabbati oshishi uchun biz, kattalar sof o‘zbek tilida gaplashib, o‘rnak bo‘lmog‘imiz lozim. Zero, so‘zi go‘zalning — o‘zi go‘zal. Alisher Navoiy bobomizning “Xamsa”si orqali turkiy olamda baralla navolangan, o‘zbek millatining ildizlari butunligidan dalolat beruvchi, yorqin istiqbol va buyuklik maqomiga yetkazuvchi ona tilimiz har birimiz uchun naqadar qadrli ekanini aslo unutmasligimiz zarur.

MOZIY — HAQIQATNING TAROZISI

"Dorul-Quzzot" — ADOLAT DARGOHI

KO'HNA BUXORODAGI ENG ISHONCHLI VA MUSTAHKAM QO'RG'ON QAYTA TIKLANMOQDA

Tarix sir-sinoatlarga to'la. Uni o'rganganing sari sayqallashib, bugungi kunga yo'l ochgan o'tmish manzaralari oydinlashib boraveradi. Diyorimiz olis davlatchilik tarixi, buyuk allomalar, qadimiy shaharlar-u tarixiy obidalarga boy. Ularda hali o'rganilmagan jihatlar, kashf etilmagan yangiliklar, topilmagan ma'lumotlar qancha. Sharq xalqlari madaniy merosining eng katta boyliklaridan biri bo'lmish Buxoroda ham o'rganilmagan tilsimlar bisyor.

Ularni tadqiq etish orqali o'tmish, bugun va kelajakni o'zaro bog'lash soha olimlari zimmasida ekani ham sir emas. Shu maqsadda muntazam o'tkazilayotgan turli tadqiqotlar, xalqaro loyihalar ko'lami oxirgi yillarda yanada ortib borayotir. Yangi izlanishlarni davom ettirish, tariximizni chuqurroq o'rganish uchun ajratilayotgan davlat grantlari, qo'shimcha mablag'lar esa ilm-fan sohasi rivojiga katta turtki bermoqda.

Ana shunday grantlardan birini Buxoro davlat universiteti va "Buyuk ipak yo'li" Buxoro viloyati madaniy-ma'rifiy markazi olimlari qo'lga kiritgan edi. O'tgan bir yil davomida "Buxoro amirligi qozixona mahkamasi tarixi" ilmiy loyihasi doirasida qator izlanishlar qildik. Arxeologik va ilmiy tadqiqotlar XIX asrga oid Qozixona madaniy meros yodgorligida o'tkazildi. Bu joy Buxoro amirligida fuqarolarning huquqiy munosabatlarini hal etishda asosiy bo'g'inlardan biri hisoblangan va hozirgacha saqlanib qolgan bo'lib, milliy davlatchiligimiz tarixining o'rganilmagan sahifalaridan biridir.

Buxoroda azaldan ilm-fan taraqqiy etishi barobarida jamiyatda adolatni ta'minlashga munosib hissa qo'shgan atoqli qozilar ham yetishib chiqqan. Bu qadim shaharda qozikalonlik qilib dong taratgan, ilmu ma'rifati va adolati bilan namuna ko'rsatgan yetti qozi o'tgani ma'lum.

Hududda qonunchilik mahkamalari vujudga kelishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Dastlab zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" jamiyatning huquqiy qarashlarini o'zida ifodalagan bo'lsa, keyinchalik davlatchilik asoslari tarixiy tajribalar asosida tobora takomillashib borgan. Ayniqsa, islom dini kirib kelishi va shariat qoidalari asosida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot tartibga solib borilishi Buxoroda ham qozilik mahkamalari vujudga kelishiga poydevor qo'ydi. Natijada ular jamiyatda adolatni qaror toptirishning huquqiy kafolatiga aylandi. O'tgan o'n ikki asr davomida qozilar faoliyat yuritadigan maskan — qozixonalar esa "dorul-quzzot", ya'ni adolat dargohi sifatida aholining huquqiy munosabatlarini ta'minlaydigan ishonchli va mustahkam qo'rg'on bo'lib keldi.

Odatda qozilar faoliyat yuritish uchun qulay deb bilgan joylarni ixtiyoriy ravishda tanlagan. Aksariyat hollarda ular masjid, madrasa yoki o'z uylarida ishlagan. Keyinchalik alohida binolar qurilib, maxsus qozixona va mahkamalar tashkil etilgan. Buxoro amirligida qozixonalar faoliyati Amir Shohmurod (hukmronlik davri 1785-1800) davrida kengayib bordi. Shohmurod mamlakatda adolatni qaror toptirish maqsadida shaxsiy namuna ko'rsatib, Minorai Kalon yaqinidagi hovlisida fuqarolarning arz-dodlarini eshitish va ularni hal etish tizimini joriy etgan. Natijada amirlik poytaxti Buxoroda qozixonalar va qozilar tasarrufida bo'lgan hovuz, hammom, bog', madrasa va masjidlar soni XX asr boshlariga qadar muttasil kengaya bordi.

Huquqiy xizmatlarning dastlabki ko'rinishlari

Biz tadqiqot davomida hozir hayot bo'lgan buxorolik nuroniylar xotiralari, ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar, arxiv hujjatlari hamda 2022-2023-yillardagi arxeologik izlanishlar natijalarini o'rgandik. Buxoro amirligining bugungi kunda qisman saqlanib qolgan markaziy qozixonasi qiyofasini tiklash maqsadida uning dastlabki manzarasi qanday bo'lgani, mahkama jarayonlari qanday kechgani hamda qozixona qanday xonalardan iborat bo'lgani kabi savollarga javob izlashga harakat qildik.

O'rganishlarimiz natijasi ko'rsatadiki, o'sha davrlarda qozikalon yashagan uy va sud boshqarmasi binosi qozixona deb yuritilgan. Buxoro shahrida sud ishlari uchun mo'ljallangan maxsus bino bo'lmagan, qozikalon uyi ushbu vazifani bajargan. Qozilarning uylari loyiha va qurilishi jihatdan u yerda qozixona joylashishi yoki joylashmasligiga bog'liq bo'lmay, an'anaviy Buxoro aholisi xonadonlaridan biror jihati bilan ajralib turmagan. Biroq fuqarolarni qabul qilish va ularga huquqiy xizmat ko'rsatish hamda huquqbuzarliklarni bartaraf etish uchun tadbirlar o'tkazish kabi talablarga javob bera olgan.

Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, Buxoro shahrida bir necha qozixona faoliyat yuritib, markaziy qozixona Ark qo'rg'onidan tashqarida — Minorai Kalonning janubi-g'arbi, Shahriston va Gavkushon mavzelari o'rtasidagi Sharifjon guzarining jarlik yoqasidagi qismida joylashgan. Bu mavze XVI asrda Mirzoquli guzari deb nomlanib, juda kichik va aholisi ham oz bo'lgan. U yerda dastlab faqat qozikalon hovlisi, ya'ni qozixona bo'lgan. Guzar aholisining ko'pchiligi qozixonada turli lavozimlarda, xususan, mirzalik va mulozimlik vazifalarida ishlagan. Boshqa qismi esa hunarmandlik va savdo bilan shug'ullangan.

Qozixonaning uchta darvozasi bo'lib, markaziy darvoza fuqarolarni qabul qilish uchun mo'ljallangan. Qozikalon uyining darvozasi ortida ikkita sufa bo'lgan, katta sufada jibachi, mirzaboshi, qorovulbegi unvoniga ega, "qirq a'lam" deb nomlangan 40 ga yaqin ulamo o'tirgan. O'ng tomondagi kichikroq boshqa sufa esa darbon (darvozabon) uchun mo'ljallangan. Uning vazifasi eshik oldida navbatchilik qilib, murojaatchilarni qozikalon oldiga olib borishdan iborat edi. Qozixonaning markaziy darvozasi hech qachon yopilmagan. Agar uni yopishganda ham bu uzoq muddatga cho'zilmagan. Bundan asosiy maqsad amirning qarorlarini va turli rasmiy shoshilinch xatlarini kechiktirmasdan qabul qilish bo'lgan.

Uch hovlidan iborat maskan

Buxoroning XIX asrga oid qozixonasi uchta hovliga bo'lingan va har biri alohida vazifani bajarishga mo'ljallangan. Birinchi hovli qabulxona, mahzarxona (hujjatxona), aminaxona (amin xonasi), mutavallixona

(ish boshqaruvchilar xonasi), muftixona, mahramxona (yordamchilar xonasi) va qozilik hujjatlari rasmiylashtiriladigan boshqa xonalardan iborat. Bu hovlida hozir faqat qozikalon o'tiradigan old ayvonli mehmonxona, mirzoyi daftarxonasi hamda muftixonalar saqlangan.

Barcha mahkama jarayonlari aynan shu hovlida o'tkazilgan. Darboshi tomonidan olib kelingan fuqaroni avval ikki mahram — qozikalonning yaqin yordamchilari qabul qilib, dastlabki ishni ko'rish jarayoni kechgan. Muftixonada mufti-a'lam raisligida 15 mulladan iborat devoni mufti kengashi maslahatlashgan holatda shariat qoidalariga rioya etib fatvo, sijjil (ikki shaxs o'rtasidagi bahs-munozara bo'yicha qozi tomonidan chiqarilgan hukm) va rivoyatlar tuzishgan, so'ngra fuqaro qozikalon huzuriga olib borilgan. Qozi odatda o'z kotibi — mirzoi kalon bilan birgalikda kichik deraza orqali fuqarolarni bo'yroi shariat (shariat gilamchasi) ustiga taklif etib, murofaa (da'vo, qoziga shikoyat bilan murojaat qilish, sud) jarayonini amalga oshirgan. Shaxsiy masalalar bo'yicha murojaat etuvchilar esa old dahliz orqali kiritilgan. Xuddi shu hovlida qozikalonning shimolga qaragan besh eshikli, baland ustunli yozgi qabulxonasi ham joylashgan. Qozixonada aksariyat hollarda fuqarolik ishlari va kichik nizoli vaziyatlar ko'rib chiqilgan. Agar ish juda keskinlashib ketsa, unda Ark qo'rg'onida qushbegi huzurida shayx ul-islom, raisikalon va qozikalondan iborat kengashda muhokama qilingan.

Qozixona darvozasidan o'ng yo'lakdagi xonalardan birida 5-6 nafar mirzo faoliyat yuritadigan mirzaxona (devonxona) joylashgan. Qozixona kotibi, ya'ni mirzoda maxsus daftar bo'lib, unda qozixonadan chiqqan hujjatlar qaydi yuritilgan. Buxoro qozixonasida qozikalonning turli tabaqa vakillaridan iborat 40 nafardan 60 nafargacha mulozimi mahkama ishlarida faoliyat yuritgan. Shuningdek, Buxoro qozixonasida merosiy mulkni taqsimlash bo'yicha 12 ta mutaxassis — tariqachi ham bo'lgan.

Ikkinchi hovlidan, asosan, turli xizmatlar ko'rsatadigan xona (farroshxona, oshxona, mirzaxona, tahoratxona)lar o'rin olgan. Mazkur hovlida mirzoyi ijora (ijara ishlari bo'yicha kotib) ham bor edi. U ijaraga berilgan vaqf mulklari hisobini yuritgan hamda vasiqa hujjatlarini tuzgan. Ijara hujjatlarini rasmiylashtirish aynan mirzoi ijora orqali amalga oshirilgan. Uchinchi hovli esa qozikalon oilasi uchun mo'ljallangan, biroq hovlining bu qismi saqlanmagan.

Qozixonada hujjatlarning haqiqiyligi tamg'a, muhr, nishonlar bilan qonuniylashtirilgan. Rasmiy ishlarda qo'llanilgan muhr-tamg'alarning ko'rinishi bir necha xil — dumaloq, bodom yoki uch, to'rt, olti, sakkizburchak shakliga ega bo'lgani. Mazkur muhrlar orasida dumaloq shakldagilardan hujjat yuritish amaliyotida ko'proq foydalanilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, qozixonada Sadriddin, Badriddin va Burhoniddin sulolasi Buxoro amirligi qozikalonlari sifatida faoliyat ko'rsatgan. Keyinchalik hovli ularning avlodlari, xususan, qozi Kiromiddin tasarrufiga o'tadi. Mazkur qozilar avlodiga buxoroliklarning hurmat va ehtiromi baland bo'lib, ular istiqomat qiladigan xonadon (qozixona) aholi o'rtasida Ibn Bayzo (yoki xonadoni Bayzo, ya'ni ravshan, shaffof, nurli xonadon) nomi bilan ta'riflangan.

Saqlanib qolgan yagona qozixona

Qizil armiyaning 1920-yil 28-avgustdan 2-sentabrgacha davom etgan hujumi oqibatida Buxoroning aksariyat binolari yong'inda qoladi. Buxoroliklar orasida kichik qiyomat deb nomlangan mazkur bosqinda qozixona ham qisman zarar ko'radi. Buxoro shahrini bosib olgan qizil askarlar Arkdagi amir xazinasini, Buxoro qozikaloni, qushbegisi va boshqa saroy amaldorlarining butun boyliklarini talon-taroj qilganlar.

"Buxoro axbori" gazetasida yozilishicha, mulla Burhoniddin qozikalon va amirlikda boshqa yuqori mansablarda ishlagan qozi, mulla va sudurlar Buxoro favqulodda tekshiruv komissiyasi qarori bilan 1920-yil 6-sentabrda otishga hukm qilingan. O'sha voqealarning bevosita shohidi bo'lgan Muhammad Ali Baljuvoniy o'z asarida Buxoroda ulamolarga nisbatan jazo siyosatini quyidagicha ko'rsatadi: "Miyonsaroy o'rtasidagi jilovxona darvozasi hujralaridan birida yashiringan qozikalon (Mir Burhoniddin), raisikalon va qozikalonning o'g'li Shahobuddinxon Miyonsaroyda asirga olindi. Ular orasida qozikalonning mirzosi va dabiri (darbor) Mirzo Umar miroxo'r ham bor edi. Ularni zudlik bilan Buxoroga yubordilar. Bu va boshqa ko'plab mahbuslar sho'ro qonunlari bo'yicha gunohkor deb topildi va sud qozilarining hukmi bilan qatl etildilar".

BXSR hukumati shakllantirilgach, dastlabki ishlar adliya nazoratini o'rnatishdan boshlanadi. Xususan, 1920-yil 2-oktabrdan boshlab BXSR Adliya nozirligi tomonidan shahar va tumanlarda qozixonalar tashkil etilib, har biriga qozilar tayinlanadi. Buxoro hukumati aholiga birinchi murojaatnomasida eski qozixonalar faoliyati tugatilgani va uning o'rnida xalq sudlari (xalq qozixonalari) tashkil etilgani, tan jazolarini qo'llash man etilgani, shuningdek, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi hamda jinsidan qat'i nazar, barchaning qonun oldida tengligini e'lon qiladi.

1921-yil 18-23-sentabrda Butunbuxoro xalq vakillarining II qurultoyida BXSRning 79 moddadan iborat konstitutsiyasi qabul qilinadi. BXSR Markaziy ijroiya qo'mitasi qaroriga ko'ra, Adliya nozirligi tarkibida 1922-yil noyabrda prokuratura bo'limi faoliyati yo'lga qo'yiladi. Shunday qilib, ko'hna Buxoroda asrlar davomida amirlik tizimida mavjud bo'lgan qozilik mahkamasi faoliyatidan birdaniga voz kechilmay, 1924-yilga qadar saqlab qolindi. 1928-yil bahorida esa qozixonalar milliy huquq mahkamasi sifatida butunlay tugatildi.

Buxoro amirligining qozixona mahkamasi o'z faoliyatini tugatgach, hovli Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyati tasarrufiga olinadi. Ushbu binoda 1922-yilda Fayzulla Xo'jayevning ko'rsatmasi bilan xorijdan uskunalar keltirilib, zarbxona tashkil qilinadi. Rasman O'zbekistonda qozi unvoni bilan faoliyat yuritgan so'nggi shaxs esa taniqli din va jamoat arbobi, muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon (1908-1982) bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asrga oid Qozixona madaniy meros yodgorligi o'z davrida fuqarolar muammolarini bartaraf etishga qaratilgan adliya xizmatlarini ko'rsatuvchi adolat dargohi bo'lgan. Afsuski, sovet davrida bu yodgorlikka e'tibor berilmasligi oqibatida keng maydonni egallagan va bir necha tarmoqdan iborat bo'lgan qozixona ayanchli ahvolga kelib qoldi.

Bugun ana shu merosni o'rganish, tadqiq etish harakatlari faollashgani quvonarli. Saqlanib qolingan yagona qozixonani qayta tiklash, unga yangi hayot bag'ishlash va huquq tarixi muzeyini tashkil etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Zero, aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda o'tkazish ham ibratli, ham samarali ishdir.

Shu maqsadda tadqiqot doirasida Buxoro viloyati prokuraturasi tashabbusi bilan "Buxoro amirligi qozixona mahkamasi tarixi" kitobi chop etildi. Unda Buxoro amirligining ma'muriy-boshqaruv tizimi hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, shuningdek, amirlikda shariat ahkomlari asosida amalga oshirilgan islohotlar, qozilar tayyorlash amaliyoti va kasbiy mezonlarning ishlab chiqilishi, Buxoro amirligi qozixonasi va uning faoliyati, amirlikda jazo va ijro amaliyoti, mang'itlar davrida Buxoroda adolatparvarligi va beqiyos bilimi bilan nom qozongan ma'rifatparvar qozilar va ularning ilmiy merosi haqida ma'lumotlar berildi.

Albatta, biz ushbu kichik tadqiqotimiz orqali Buxoro amirligi qozixona mahkamasi va unda kechgan jarayonlarni to'la yoritdik, degan fikrdan yiroqmiz. Biroq qozilik mahkamasi tarixi nihoyatda boy ekani va aniqlangan ma'lumotlar keyingi tadqiqotlarga qaysidir ma'noda yo'l ochishga imkon berishiga ishonamiz.

Ismat NAIMOV,
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
"Buyuk ipak yo'li" markazi rahbari

XALQARO ANJUMAN

JAHON TAMADDUNIGA DAXLDORLIK HISSI

Oradan necha asrlar o'tganiga qaramay, o'rta asrlarda yashab ijod qilgan, jahon tamadduni rivojiga bebaho hissa qo'shgan alloma va mutafakkirlar dahosi, ilm-fanning turli yo'nalishlaridagi izlanishlari va qomusiy bilimlari hamon e'tirof etilmoqda. Ilm-fanning turli sohalarida kashfiyotlar qilgan ajdodlarimiz islom ilmida ham peshqadam bo'lib, islom sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shishgan. Ularning hayot yo'llari va ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish, tadqiq etish bugungi kunda dolzarb mavzuga aylangan.

Mintaqada islom sivilizatsiyasining o'rnini o'rganish va targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida IRCICA — Islom tarixi, san'ati va madaniyatini tadqiq etish xalqaro markazi bilan hamkorlikda "Markaziy Osiyoda islom sivilizatsiyasi: o'tmish va hozirgi zamon" mavzusida IV xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. Onlayn va offlayn formatda tashkil etilgan xalqaro konferensiyani O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori Uyg'un G'afurov ochib berdi.

— Markaziy Osiyo mintaqasi o'zining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'rifiy va geopolitik imkoniyatlari bilan dunyo e'tiborida turibdi, — dedi U.G'afurov. — Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida azaldan yaxshi qo'shnichilik, hamjihatlik, savdo, iqtisodiy va ilmiy-madaniy aloqalar rivojlangan. Umuman olganda, Markaziy Osiyo mintaqasi Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgani geopolitik nuqtayi nazardan muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida har yili an'anaviy tarzda o'tkazilayotgan xalqaro konferensiya ham mintaqa xalqlari o'rtasidagi mehr-oqibat, bag'rikenglik, hamjihatlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash, targ'ib va tadqiq etish maqsadlariga xizmat qilishiga ishonaman.

Shuningdek, IRCICA — Islom tarixi, san'ati va madaniyatini tadqiq etish xalqaro markazi bosh direktori, professor Mahmud Erol Qilich ham ma'ruza bilan chiqish qildi.

Anjumanda IRCICA tadqiqotlar va nashr bo'limi boshlig'i Jengiz Tomar, Bosh direktor maslahatchisi, tarix fanlari doktori Ashirbek Mo'minov, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi professor-o'qituvchilari, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari direktorlari, turli davlat va jamoat tashkilotlari, hamkor muassasalar rahbarlari, professor-o'qituvchilar, yosh olimlar, ilmiy-tadqiqotchilar, talabalar ishtirok etdi.

Konferensiya "Markaziy Osiyo mintaqasida islom madaniyati va san'ati", "Markaziy Osiyo mutafakkirlari ilmiy-ma'naviy merosi", "Markaziy Osiyo tarixiy yodgorliklari epigrafikasi va arxitekturasi" hamda "Markaziy Osiyo xalqlarining urf-odat va an'analaridagi umumiylik va o'ziga xoslik" kabi yo'nalishlarga bo'lingan holda davom etdi. Qatnashchilar tomonidan "Muqaddamat-ul-adab" qadimiy qo'lyozmalarining tavsifi", "Islom sivilizatsiyasida xattotlik san'atining o'rni va IRCICAning xattotlik san'atiga qo'shgan hissasi" va boshqa dolzarb mavzularda ma'ruzalar qilindi. So'zga chiqqanlar Markaziy Osiyoning islom sivilizatsiyasi rivojidagi tarixiy o'rni, mintaqa allomalarining ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish borasida olib borayotgan ilmiy tadqiqotlari haqida batafsil ma'lumot berdi.

— Xalqaro anjumanda Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, yozma yodgorliklari va ilmiy merosiga oid mavzular ham muhokama qilindi, — dedi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Islom tarixi va manbashunosligi — IRCICA kafedrasi mudiri, tarix fanlari doktori Ne'matullo Muhamedov. — Umuman olganda, mavzular xilma-xil va dolzarb bo'lib, mahalliy va xorijlik taniqli olimlar, tarixchilar, islomshunoslar, etnograflar va manbashunoslarning ma'ruzalari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Anjuman ishida yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy-diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, mamlakatning islom sivilizatsiyasini rivojlantirish borasidagi rolini yanada oshirish hamda buyuk allomalar jahon tamadduniga qo'shgan hissasini milliy va xalqaro miqyosda ommalashtirish jarayoni qizg'in davom etayotgani ta'kidlandi.

Qizg'in munozara, savol-javoblar ostida o'tgan tadbirda hamkor tashkilotlar bilan ilmiy-amaliy aloqalarni yanada davom ettirish borasida fikrlar almashildi. Konferensiyaga taqdim etilgan ma'ruzalar alohida to'plam holida chop etilishi, undan yoshlarning ilmiy maqolalari ham o'rin olishi ma'lum qilindi.

Nodir MAHMUDOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalari tahririyati" DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.
43312 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05